

XALQIMIZNING FAROVON YASHASHI UCHUN SHAROIT YARATISH
YANGI O‘ZBEKISTON SIYOSATINING ASOSIY POYDEVORIDIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-mart kuni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishish, yirik energetika obyektlari qurilishini boshlab berish, mahallalar ahli bilan muloqot qilish maqsadida Namangan viloyatiga tashrif buyurdi.



Ta’kidlash joiz, sanoatni rivojlantirish keyingi yillarda Namangan viloyatining “drayveri”, ya’ni “o’sish nuqtasi”ga aylandi. Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifining ilk kuni manzillarida aynan sanoat rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilgani ham bejizga emas.

Davlatimiz rahbari dastlab Yangi Namangan tumanidagi “Gavhar grup” korxonasini borib ko’rdi. U yiliga 1 ming 200 kilogramm zargarlik buyumlarini sanoat usulida ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Yurtimiz zargarligi qadimdan mashhur. Jumladan, Namanganda ham “qo’ligul” hunarmand sulolalar bo’lgan. Lekin yetarli sharoit bo’lmagani, xomashyo sotib olishdagi qiyinchiliklar sababli ko’p zargarlar faoliyatini to’xtatgan edi. Bori ham buyumlarni qo’l mehnatida tayyorlardi.

Prezidentimizning 2019-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog’ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni soha vakillariga keng imkoniyatlar ochdi. Xususan, zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilarga kon-metallurgiya kombinatlari va aholidan qimmatbaho metall parchalari, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlarni sotib olish huquqi berildi. Xorijdan texnologiya va mutaxassislar olib kelish qo’llab-quvvatlandi.

Bunday e’tibor va imkoniyatlar zargar tadbirkorlarga ishonch berdi. “Gavhar grup” mas’uliyati cheklangan jamiyati ham shu tariqa vujudga keldi. Turkiya, Italiya, AQSH va Germaniyadan zamonaviy uskunalarni keltirilib, 2022-yilda ishga tushirildi.

Bugungi kunda korxonada 10 ming xil dizayndagi zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish o’zlashtirilgan. Chet ellar bilan hamkorlik-

da qo’l soatlarining tilla korpusini tayyorlash yo’lga qiyilgan. 2023-yilda 270 kilogramm mahsulot ishlab chiqarilgan.

Shuningdek, bu yerda 3D modellashirish orqali buyurtma asosida istalgan ko’rinishdagi buyumlarni ishlab chiqarish mumkin.

Oltinni Tovar-xomashyo birjasidan kechiktirib to’lash sharti asosida sotib olish imkoniyati aylanma mablag’ va ishlab chiqarish uzviyligi-da muhim omil bo’lmoqda.

Yana bir muhim tomoni, korxonada mahalliy zargarlar bilan kooperatsiya yo’lga qo’yilgan. Natijada yashirin ishlaganlar “soya”dan chiqdi, ish o’rinlari ko’paydi. Korxonada 100 dan ortiq kishining bandligi ta’minlangan. Shu yerning o’zida yoshlarga hunar ham o’rgatiladi.

Davlatimiz rahbari korxonada ishlayotgan zargarlar bilan suhbatlashdi.

— Mamlakatimizda yiliga 100 tonna oltin qazib olyapmiz. Uni zargar tadbirkorlarga bo’lib to’lash sharti bilan sotishga ruxsat berilgan. Ochig’i, bunday imkoniyatlar hech qaysi davlatda yo’q. Lekin yurtimizda oltinning atigi 6 foizi qayta ishlanyapti. Oltin qazib olinmaydigan mamlakatlar bizdan ko’p eksport qilaypti. Bu sohada bir oz kechikdik. Shuning uchun ishlab chiqarishga qo’shimcha sharoitlar yaratyapmiz. Bu hali boshlanishi. Sohani hali yana rivojlantiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Turkiyalik ishbilamonlar bilan tajriba almashish, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish masalalari bo’yicha muloqot bo’ldi.

Davlatimiz rahbari shu yerda “Mexmas” mas’uliyati cheklangan jamiyati mahsulotlarini ham ko’zdan kechirdi.

Bu korxona yiliga 20 ming tonna burama mix va 18 ming tonna rulonli qog’oz ishlab

chiqarish, 6 million dollarlik eksport quvvatiga ega. 700 kishi ish bilan ta’minlangan.

Bozor talabidan kelib chiqib, avtomobil sanoatida qo’llanadigan mahkamlash mahsulotlari hajmini va eksportini oshirish, ish o’rinlarini ko’paytirish rejalari yuzasidan ko’rsatmalar berildi.

Shundan so’ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyati Uychi tumanidagi “Qumtepa” yoshlar kichik sanoat zonasida bo’ldi.

Mahallalarda shakllangan kasb-hunarlamini rivojlantirib, drayverga aylantirish, shu orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Uychi tumanidagi Qumtepa, Dehqon, Balandariq va Jiydakapa mahallalarida temirchilik shunday yo’nalishtirildi.

2021-yilda bu yerda temirchilikka ixtisoslashgan sanoat zonasi tashkil etilib, xonadondagi usta-hunarmandlarga zarur sharoitlar yaratib berildi. Uch gektar maydonni egallagan majmua yo’l, energiya, ichimlik va oqova suv kabi barcha infratuzilma bilan ta’minlandi. Shu bilan birga, energiya tejamkor usullar joriy etilib, quyosh panellaridan samarali foydalanilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yerda ishlab chiqarish jarayonini ko’zdan kechirdi, temirchi hunarmandlar bilan suhbatlashdi.

Sanoat zonasida birinchi bosqichda 52 ta loyiha amalga oshirilib, 1 ming 500 dan ortiq ish o’rni yaratilgan. Ustalar xomashyoni “Aziya metall prof” korxonasi va Toshkent metallurgiya zavodidan olib, temirdan darvoza, eshik, so’ri, panjara va boshqa metall buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Joylarda bu mahsulotlarga talab yuqori. Shu bois, tadbirkorlar barcha viloyatlarda o’z savdo

uydari va ishlab chiqarish filiallarini ochgan. Bundan tashqari, qo’shni davlatlarga 1,2 million dollarlik mahsulot eksport qilingan.

Ikkinchi bosqichda yana 45 ta loyihani amalga oshirish, 1 ming 330 ta qo’shimcha ish o’rni yaratish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz mas’uliyatlariga sanoat zonasi maydonidan samarali foydalanish, yoshlarni va ishsiz fuqarolarni hunarga jalb etish bo’yicha ko’rsatmalar berdi.

Shu yerda mahallabay ishlab chiqarish orqali ishsizlikni kamaytirish bo’yicha vazifalar muhokama qilindi.

Sayxunobod tajribasi asosida 14 ta tuman-dagi 788 ta mahallaga iqtisodiy idoralarning rahbar va mas’ul xodimlari birlashtirilgan. Ular “mahalla yetiligi” bilan birga 557 ming xonadondagi imkoniyatlarni o’rgangan.

— Men Sayxunobodda “bu yil iqtisodiyotimizda hayotiy uyg’onish va yuksalish yili bo’ladi” dedim. Maqsad — inson salohiyatiga kapital yo’naltirish, uni harakatga undash, dunyoqarashni o’zgartirish. Uychi tumani ham iqtisodiyoti og’ir hudud. Ushbu tizim asosida ishsizlarga tomorqadan daromad topish, o’z ishini ochildi, qobiliyatini yuzaga chiqarishga ko’maklashish kerak, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari Qumtepa mahallasi markazida ham bo’lib, aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Mazkur mahallada 5 ming 200 nafarga yaqin aholi yashaydi. Xonadonlar metallni qayta ishlash, dehqonchilik va xizmat ko’rsatishga ixtisoslashgan.

Bu yil mahalla qiyofasi yaxshilandi. Mahalla idorasi uchun yangi bino qurildi. Barcha xonadonlar ichimlik suv ta’minotiga ulandi. Ichki yo’llar, elektr tarmoqlari ta’mirlandi. “Yashil

makon” dasturi doirasida yo’l bo’ylariga mevali va manzarali daraxt ko’chatlari ekildi.

Mahallada tikuvchilik sexi, go’zallik saloni, sport maydonchalari, tibbiyot punkti, kutubxona, oziq-ovqat do’konlari hamda dorixonalar aholiga xizmat ko’rsatmoqda.

Yangi mahalla binosida Tadbirkorlarga ko’maklashish markazi ham tashkil etildi. Bu yerda aholi va tadbirkorlar ayrim davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Prezident buni ma’qullab, davlat idoralari bilan bog’liq masalalarni iloji boricha mahallalarning o’zida hal etish zarurligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari Namangan tumanidagi “Nam Motor Servis” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

To’rt gektardan ortiq hududda joylashgan ushbu investitsion loyihaning dastlabki bosqichi 2021-yilda ishga tushirilgan. Xitoydan zamonaviy texnologiyalar keltirib o’rnatildi. Natijada yiliga o’n ming dona elektr dvigatel, ikki ming dona suv nasosi ishlab chiqarish quvvati yaratildi. Yuz kishi ish bilan ta’minlandi.

Korxona mahsulotlari energiya tejamkorlik klassining “IE2” darajasida bo’lib, xalqaro standartlarga javob beradi. Ular mamlakatimizdagi kon-metallurgiya kombinatlari, suv xo’jaligi hamda Markaziy Osiyo davlatlariga yetkazib berilmoqda.

Yana bir muhim jihati, elektr dvigatellar ishlab chiqarish 60, suv nasoslari 100 foiz mahalliy lashtirilgan.

Prezidentimizga korxonaning istiqbolidagi rejalari, navbatdagi bosqichlar haqida ma’lumot berildi.

Loyihaning ikkinchi bosqichi may oyida, yakuniy bosqich esa yil oxirigacha ishga tushadi. Natijada ishlab chiqarilayotgan mahsu-

lotlar turi ortib, hamkorlik geografiyasi kengayadi. Yana 160 ta yangi ish o’rni yaratiladi.

Xususan, bu yerda 2,2 ming tonna emallangan sim, 6 ming dona elektr dvigatel, 4 ming dona katta hajmdagi suv nasosi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu qo’shimcha 500 milliard so’mlik sanoat mahsulotlari, degani.

Boshqa tarmoqlar va korxonalar bilan kooperatsiyani kengaytirish, mahalliy lashtirish darajasini oshirish bo’yicha ko’rsatmalar berildi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, yana sarmoyalar kirib kelmoqda. Bunga asos — Yangi O‘zbekistonga bo’lgan ishonch.

Namangan viloyatida ham umumiy qiymati 4 milliard dollarlik 47 loyiha shakllantirilgan. Shundan 2 milliard 300 million dollarlik 17 tasi davlatimiz rahbariga taqdimot qilindi.

Ulariga Rossiya, Xitoy, Turkiya, BAA, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Niderlandiya, Eron, Pokiston kabi mamlakatlar kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Loyihalar qurilish materiallari, elektr texnikasi, kimyo, to’qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika, tibbiyot, konchilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan.

Masalan, Xitoy bilan hamkorlikda Chust tumanida mis qazib olish va qayta ishlash, pokistonlik investor tomonidan To’raqo’rg’on tumanida sintetik mato ishlab chiqarish va bo’yash, Avstriya kompaniyasi bilan viloyat travmatologiya markazini jihozlash rejalashtirilgan.

Mazkur 47 ta loyiha natijasida 40 mingdan ortiq aholi ish bilan ta’minlanadi.

► Davomi 2-betda



“SERVIS DAVLAT”

byurokratiyaga to’la barham beradimi?

Davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoni yaratilishi keyingi yillardagi eng katta islohotlardan biri bo’ldi. Bunday xizmatlar turi ko’payib borayotir. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko’ra, sohani raqamlashtirish ko’lami yanada kengayadi. Aholi uchun “Servis davlat” tizimi joriy qilinadi. Bu orqali fuqaro va davlat o’rtasidagi munosabatlarda byurokratiyaga barham beriladi.

Shunga qaramay, sohada hamon yechimini kutayotgan masalalar bor. Ularga o’z vaqtida barham berish uchun davlat dasturida mazkur sohaga doir qator vazifalar belgilab berildi. Xo’sh, ular nimalardan iborat va ijrosi qay darajada?

— Vazifalar, avvalo, davlat boshqaruvida ortiqcha byurokratik to’siqlar, murakkablashgan tartibotlar va eskirgan yondashuvlarni bartaraf etishga qaratilgan, — deydi Adliya vazirligi mas’ul xodimi Abror Maxsudov. — Kutilayotgan o’zgarishlar davlat xizmatlarini ko’rsatishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Proaktiv va kompozit shaklda ko’rsatiladigan davlat xizmatlari ko’lamini oshirish ham nazarda tutilmoqda. Masalan, auktsion orqali ko’chmas mulk sotib olinganda unga bo’lgan huquqlarni bir vaqtda ro’yxatdan o’tkazish mumkin bo’ladi.

► Davomi 3-betda

OLTIN QO’LLAR
OLTIN MANZILLAR
YARATMOQDA

2

IQTISODIYOT VA
MA’NAVIYAT
taraqqiyotning ikki qanoti

6

XALQIMIZNING FAROVON YASHASHI UCHUN SHAROIT YARATISH YANGI O‘ZBEKISTON SIYOSATINING ASOSIY POYDEVORIDIR

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari investor va tashabbuskorlar bilan birma-bir suhbatlashdi. Loyihalarining iqtisodiy samaradorligi muhokama qilinib, ularni jadallashtirish boʻyicha koʻrsatmalar berildi.

Shu kuni Namangan viloyatida yangi elektr stansiyalari qurilishiga bagʻishlangan marosim boʻldi.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini koʻpaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Soʻnggi yillarda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryoda 1,6 gigavattli 9 ta quyosh va shamol elektr stansiyalari tarmoqqa ulandi. Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 183 megavattli 6 ta gidroelektrstansiyasi ishga tushirildi.

Bugungi kunda Namanganda jami 913 megavatt generatsiya quvvati mavjud. Soʻnggi uch yilda elektr isteʼmoli 24 foizga oʻsgan va bu, tabiiyki, davom etadi.

Shu bois, viloyatda jami qiymati 1,1 milliard dollar, quvvati 1 ming 228 megavatt boʻlgan uchta majmua loyihalashtirildi. Bular gidroelektrstansiyalar kaskadi hamda ikkita quyosh elektr stansiyasidir.

Jumladan, “Oʻzbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati 434 million dollar evaziga Uychi tumani, Norin daryosida 228 megavattli 6 ta “GES kaskadi”ni barpo qiladi. Buning natijasida yiliga 1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi, 310 million metr kub gaz iqtisod qilinadi, 430 ming xonadonga elektr uzatiladi.

Yana bir eʼtiborli tomoni, ushbu GES toʻliq yurtimizda ishlab chiqarilayotgan uskuna va texnologiyalar hisobiga quriladi. Yaʼni u mamlakatimizda “birinchi milliy GES” boʻladi.

Bu stansiyalarda 133 kishi, qurilish davrida 4 ming odam ishlaydi.

Pop tumanida Germaniyaning “Hyper Partners GmbH” kompaniyasi tomonidan 500 megavatt quvvatli quyosh elektr stansiyasi quriladi. Mazkur loyihaning qiymati 350 million dollar boʻlib, yillik ishlab chiqarish hajmi 1 milliard 95 million kilovatt-soatni tashkil etadi.

Birlashgan Arab Amirliklarining “Tepelen Group Holding Limited” kompaniyasi bilan hamkorlikdagi quyosh elektr stansiyasi ham Popda quriladi. Uning ham qiymati 350 million dollar, quvvati 500 megavattni tashkil etadi.

Ushbu stansiyalarni shu yil yakuniga qadar tarmoqqa ulash koʻzda tutilgan. Ularda 120 kishi doimiy ish oʻrniga ega boʻladi.

Mazkur loyihalar natijasida Namangan viloyatining generatsiya quvvatlari 2141 megavattga yetadi. Yillik 7,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa viloyatning elektr energiyasiga boʻlgan 5,5 milliard kVt soatlik talabini toʻliq qoplaydi. Ortgan 30 foiz elektr Andijon va Fargʻona viloyatlariga yoʻnaltiriladi.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, mazkur yirik energetika loyihalari qurilishini boshlab berdi.

— Odamlarimiz farovon yashashiga sharoit yaratish Yangi Oʻzbekiston siyosatining asosiy poydevorlaridan biridir. Buning uchun katta-kichik loyihalarni oʻz vaqtida ishga tushirish, ularning barqaror faoliyati uchun uzksiz energiya taʼminoti nihoyatda zarur. Shu maʼnoda, bugungi marosim ham tarixiy voqea. Barchangizni shunday yangi loyiha va tashabbuslar bilan tabriklayman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Taʼkidlash joizki, 2025-yilda Pop va Uychi tumanlarida umumiy quvvati 200 megavatt boʻlgan elektr energiyasini saqlash tizimlari ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bu loyihalar isteʼmol organ davrda yagona energetika tizimini rostdlash va elektr

energiyasini isteʼmolchilarga barqaror yetkazib berishga xizmat qiladi.

Shu yilning oʻzida respublikamizda 14 ta quyosh va shamol stansiyasini qurish doirasida 2,6 gigavatt quvvat tarmoqqa ulandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev kunning ikkinchi yarmida Namangan shahrida Namangan, Andijon va Fargʻona viloyatlari hokimlari hamda iqtisodiy kompleks mutasaddilari ishtirokida yigʻilish oʻtkazdi.

Unda Sayxunobod tajribasi asosida mahallabay ishlash, tomorqa va xonadonlardagi imkoniyatlardan foydalanib, aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Vodiy viloyatlarida aholi zich yashaydi. Har qarich yer qadrlir. Mirishkorlar yerdan foydalanishning hadisini olgan. Hunarmandchilik, tadbirkorlik yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga, mahallalarda ishsizlar, ehtiyojmandlar ham bor.

Davlatimiz rahbari bunday insonlarga alohida eʼtibor qaratish, tashkiliy-moliyaviy koʻmak berib, bandligini taʼminlash zarurligini aytdi. Buning uchun barcha masʼullar har bir korxona, tadbirkor va xonadon bilan yaqindan ishlaydigan tizimni yoʻlga qoʻyishi kerak.

Shu bois, mahallalarga hokimlik va barcha iqtisodiy idora xodimlari biriktirilmoqda. Ular xonadonlarda boʻlib, imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Masalan, tomorqasi boʻlsa, undan samarali foydalanish, daromadini 60-70 million soʻmga olib chiqish boʻyicha namuna yaratadi. Hunarmandlikka uquvi borlarga xomashyo, uskuna va aylanma mablagʻdan yordamlashiladi. Tadbirkorlik istagi boʻlsa, biznes loyihalar qilib beriladi.

Bunda, ayniqsa, tijorat banklari faol boʻlishi kerakligi koʻrsatib oʻtildi. Yaʼni ular, avvalo, oʻz mijozlari boʻlgan korxonalar negizida qoʻshimcha ish oʻrinlari ochilishini qoʻllab-quvvatlashi lozim.

Qolaversa, banklarga davlat tomonidan katta resurslar ajratilmoqda. Ular joylarda

aholi tashabbuslariga yoʻnaltirilib, bandlikka xizmat qilishi zarur.

Bu mablagʻlar yangi ish oʻrinlari, qoʻshimcha mahsulotlar, aholining xarid qobiliyati orqali oxir oqibat iqtisodiyotga tushum boʻlib qaytadi.

Xonadonlarda kichik qayta ishlashlarni tashkil etish, odamlarni mahsulot ishlab chiqarishga oʻrgatish, kooperatsiya va kasanachilikni kengaytirish vazifasi qoʻyildi.

Tomorqalarda va dehqonchilik uchun ajratilgan yerlarda sarxil meva-sabzavotlar yetishtirib, eksport qilish, chorvachilik, parandachilik, baliqchilik, asalarichilik orqali roʻzgʻorlarga baraka kiritish mumkinligi taʼkidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyatiga tashrifining birinchi kuni yakunida mamlakatimiz boʻylab oʻtkazilgan iftorkida ishtirok etdi.

Xalqimiz hayoti va maʼnaviyatida Islom dinining oʻrni beqiyos. Yurtimiz musulmonlari muqaddas aqidalarga amal qilib, euzu anʼanalarni davom ettirib kelmoqda.

Bu yil ham elimiz maʼnaviy poklik, xayr-u saxovat ayyomi boʻlgan Ramazon oyini katta xursandchilik bilan kutib oldi. Masjidlarda Qurʼoni karim xatm qilinib, yurtimizga fayz-u baraka yogʻmoqda. Jamiyatimizda doʻstlik-birodarlik, mehr va saxovat tuygʻulari kuchaymoqda. Odamlar bir-biriga yanada mehr-oqibadi boʻlib, bemorlar va keksalar, yordamga muhtoj insonlarga gʻamxoʻrlik koʻrsatish tobora kengaymoqda.

Bugungi muborak oqshomda yurtimizning barcha hududlarida, viloyat, shahar va tumanlardagi hamma mahallalarda iftorki dasturxonlari yozildi. Namangan viloyatidagi ehsonga Fargʻona va Andijon viloyati nuroniylari ham tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz musulmonlarini Ramazon oyi bilan yana bir bor tabrikлади.

— Bugun barchamiz — muhtaram ularimiz va nuroniylarimiz, jamoatchiligimiz

vakillari birgalikda iftor qilmoqdamiz. Yagona, ahil oila boʻlib yashayotgan koʻp millatli Oʻzbekiston xalqi bugun goʻyoki bir dasturxon atrofida jam boʻlib oʻtiribdi. Oʻylaymanki, bu savobli tadbir inson qadriini ulugʻlashga, oʻsib kelayotgan yoshlarimizni mana shunday olijanob ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident bu ishlarga hissa qoʻshayotgan iymon-diyonatli, saxovatli yurtdoshlarimizga tashakkur aytdi.

Chindan ham, xalqimiz azal-azaldan bir-biriga tayanch boʻlib, mehr-muruvvat koʻrsatib yashashni odamiylikning oliy mezonini deb biladi. Ayni shu olijanob fazilatlar bizlarni doimo yagona xalq, yagona millat etib birlashtiradi, hayot sinovlari va qiyinchiliklarini yengib oʻtishda beqiyos kuch-quvvat beradi.

Keyingi yillarda xorijda oʻqiyotgan va ishlayotgan vatandoshlarimizga ham munosabat oʻzgardi. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ularni Vatanimizga qaytarish, ish oʻrni va daromad manbai bilan taʼminlash, oila aʼzolari va farzandlarini ijtimoiy himoyalash yuzasidan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda 40 dan ziyod ulamolar Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Turkiya, Misrga safarga yuborildi. U yerlardagi vatandoshlarimizni din-u diyonatga daʼvat etish bilan birga, hozirgi tahlikali vaziyatda ogoh boʻlib, qonunlarni hurmat qilish, yomon yoʻllarga kirmaslik zarurligi haqida suhbatlar qilishdi.

Davlatimiz rahbari chet eldagi yurtdoshlarimizni ham ulugʻ ayyom bilan tabriklab, ularga sogʻliq-omonlik va omad tiladi.

Maʼlumki, yangilangan Konstitutsiyamizda “Oʻzbekiston — ijtimoiy davlat” degan muhim qoida belgilab qoʻyilgan. Shu asosda mamlakatimizda mutlaqo yangi ijtimoiy himoya tizimi shakllanmoqda. Bu tizim birinchi navbatda ehtiyojmand kishilarga, jumladan,

nogironligi boʻlgan, kam taʼminlangan, yetim qolgan, oʻzgarlar parvarishiga muhtoj insonlarga har tomonlama eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatishga qaratilgan.

Bu haqda soʻzlar ekan, Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiy bobomizning “Kimki bir koʻngli buzugʻning xotirin shod aylagay, oncha borkim, Kaʼba vayron boʻlsa, obod aylagay” degan hikmatini yodga oldi.

Bunday qarash muqaddas dinimizning asl insoniy mohiyati bilan hamohangdir. Haqiqatan, chinakam musulmon oʻziga ravo koʻrgan narsani boshqalarga ham ravo koʻradi. Mamlakatimizda xalq farovonligini oshirish, kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan saʼy-harakatlar mohiyati aytib oʻtildi.

Davlatimiz rahbari soʻzining yakunida eng ezgu tilaklarini bildirdi.

— Muborak Ramazon oyi sharofati bilan yurtimizda, jami musulmon oʻlkalarda, butun dunyoda tinchlik, barqarorlik hukm sursin, odamlar, xalqlar oʻrtasida doʻst-birodarlik, oʻzaro hurmat tuygʻulari ustuvor boʻlsin. Kuchlilar — oʻjizlarga tayanch, saxovatpe-shalar — muhtojlarga yordamchi, yoshlar — qariyalarga gʻamxoʻr boʻlsin. Dinimizda belgilab berilgan toʻgʻri yoʻldan ogʻishmaylik, ayni paytda zamon bilan hamnafas yashaylik. Yoshlarimiz bilimlari bilan jahonga tanilib, yurtimiz dovrugʻini yuksaklarga koʻtarishsin. Oʻzbekiston dunyoning eng oldi, eng ilgʻor davlatlaridan biriga aylansin. Tutgan roʻzalaramiz, duolarimiz dargohida qabul boʻlsin, — dedi Prezidentimiz.

Qurʼon oyatlari tilovat etilib, Alloh taolodan xalqimizga tinchlik-farovonlik tilab duolar qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Oqilxon DADABOYEV,
OʻZA muxbirlari

Islohotlar — amalda

Bahrom boboning tanini issiq ilitdi. Qahraton qishning izgʻirin kunlari ortda qolib, koʻklamning kishi badaniga xush yoquvchi oftobiga toblandi. Hovlida oʻynab yurgan chevaralarining “Argʻamchi, argʻamchi” degan qiyqirigʻini eshitdi. “Katta bobo, turnalar kelyapti!” Bobo qoʻli bilan quyoshni toʻsib, koʻkka tikildi, quloq tutdi.

— Bobo, ana, turnalar argʻamchi boʻlib uchaypti. Qarang, qarang!

— Ana, Xoʻjabarkoʻh togʻi tomon ketyapti.

Bobo duoga qoʻl ochdi. Koʻklamga, Navroʻzga yetkazganiga shukr aytib, duo qildi.

Bahrom bobo uzoq yillar Oltinsoy tumanidagi bir necha mahallalarda raislik qilgan, bugun ham Moʻminqul mahallasida el kayvonilaridan biri. U tengilar keksalik gashtini surib, uydan chiqmasa, bobo hudud aylanaadi, oʻzgarishlarni koʻrib, koʻngli yorishadi.

Farzandi skuter olib berganidan buyon esa tumanning u joyidan bu joyi bir qadam. Xalqqa bosh boʻlib yuradi. Bugun ham koʻngliga tukkan manzillarga borish niyati bor edi, nabirasi ergashdi. Bobo va nabira skuteriga minib, butun Oltinsoy kaftdek yaqqol koʻrinib turadigan Qorliq adirligi tomon ketdi. Yoʻl-yoʻlakay har bir koʻchada hashar boʻlayotgani, koʻchaboshilar tashabbus koʻrsatayotganiga koʻzi tushdi. El farovon, yurt tinch, koʻngillar xotirjam. Demakki, tumandagi mahallalarda ish yaxshi ketyapti.

Qirdan hudud yastanib koʻrinadi. Surxontogʻ etagida hozirgi Oltinsoy tumani hududidagi qishloqlarda umrguzaronlik qilib kelayotgan togʻliklar erta bahordan koʻch-koʻronni ortib, ovulga koʻchib chiqib yashardi. Ovul degani koʻklamda toʻrt-besh chogʻli chorvador oila ancha yillardan buyon qoʻni-qoʻshni boʻlib yashab kelgan Sayrak dasthlari, Qoraqir yalangliklarida edi. Bu oilalar azal-azaldan chorva izidan yurgani bois, ovulda oʻtovlar tikilar, bahor va yoz oylarida shu yerda yashardi. Kech kuzga borib esa chorvador oilalar qishlov uchun qishloqqa enib kelardi.

Doʻppidekkina qishloqda aniq biror manzil soʻralsa, oʻtov tikilgan joy inobatga olinib, “Hoʻ, Jumaning yurti yoki Yusufning yurti bor-ku, ana oʻsha yerda”, deya javob

OLTIN QOʻLLAR OLTIN MANZILLAR YARATMOQDA

berilar, qishda oʻtovlar yigʻishtirilib, koʻchib ketilsa ham shu nom qolardi. Bobo nabirasiga baland ovozda deydi: “Bu mening yurtim!”. Bola hali bu gapning mohiyatini tushunmas, ammo boboning oʻzi zavqlanadi bundan. Eh-he... mana bu koʻringan keng hudud Oltinsoy...

Tumanda 54 ta mahalla bor, 187 ming aholi yashaydi. Barchasida “mahalla yettilligi” — mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliq nazoratchisi va ijtimoiy xodim ishlayapti. Tumanning eng namunali mahallalari — Katta Vaxshivor, Qumpaykal, Botosh, Xoʻjaipok, Ipqo, Qiziltepa, Xidirsho va Yakkatut.

“Obod turmush”, “Bibizaynab”, “Xoʻjaipok”, “Xalqobod” va “Gulchechak” mahalla fuqarolar yigʻinlarida yangi mahalla binolari qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu mahallalar ham ilgʻorlikka daʼvogar.

“Obod xonadon — obod koʻcha — obod mahalla” mezonini boʻyicha “Toʻxtamish”, “Karsagan”, “Mirshodi”, “Qoratepa” va “Ekraz” mahalla fuqarolar yigʻinlarida esa obodonlashtirish va taʼmirlash ishlari olib borilmoqda.

Ayni jarayonda Toʻxtamish mahallasida ham ezu tamoyil va tashabbus doirasida qator loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Mahalla togʻ etagida, dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan. Bu yerda 2850 kishi yashaydi. Mahallaning ixtisoslashuvi — dehqonchilik. Bir zamonlar faqat chorvachilik ortidan kun koʻrgan aholi bugun turli kasb-korga ega.

Hudud aholisi kaftdekkina boʻlsa ham yerdan unumli foydalanishning hadisini olgan. Ular, asosan, issiqxonada limon yetishtirib, daromad oladi.

— Joriy yilda “Obod xonadon — obod koʻcha — obod mahalla” mezonini doirasida tumandagi beshta mahalla qatori Toʻxtamish ham obodonlashtirilyapti, — deydi Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tuman boʻlimi rahbari Soatmoʻmin Jumayev. — Mahalladagi 7 kilometr ichki yoʻl yaroqsiz holga kelib qolgandi. Bugun tekislandi, tosh-shagʻal toʻkilib, asfaltga tayyorlab qoʻyildi. Mahalla qabristoni ham obodonlashtirildi. Atrofi beton devor bilan oʻraldi.

Yaqin kunlarda mahallada zamonaviy koʻrinishdagi umumiy oʻrta taʼlim maktabi, maktabgacha taʼlim tashkiloti, mahalla

fuqarolar yigʻinining yangi binosi qad rostlaydi.

— Toʻxtamishga kelsangiz, quruvchilar, hasharchilar va qudratli texnika yordamida mahalla ahlining orzu-umidlari roʻyobga chiqayotganiga guvoh boʻlasiz, — deydi MFY raisi Joʻrabek Aliqulov.



Oltinsoy tumani mahallalar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan ishchi guruh bosqichma-bosqich barcha mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanish, xonadonlarni obod qilish, uy-roʻzgʻor madaniyatini rivojlantirish borasida turli targʻibot tadbirlari, koʻrgazmali seminarlar ham oʻtkazyapti.

Band boʻlmagan aholini ish bilan taʼminlash, “Temir daftar”, “Ayollar dafteri”, “Yoshlar dafteri” roʻyxatiga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlamogʻchi boʻlgan yoshlarga amaliy yordam koʻrsatish har bir katta-kichik rahbar oldidagi eng muhim va dolzarb vazifa etib belgilab berilgan.

— Ishsiz aholi daromadini oshirish maqsadida dehqonchilik uchun yer ajratilayotir, — deydi Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tuman boʻlimi rahbari Soatmoʻmin Jumayev. — Yana bir gap, “mahalla beshligi”

halol mehnatda oʻtadi. Uyushma tomonidan unga ham yer ajratildi va ijtimoiy himoyasi taʼminlandi.

— Farzandlarim yonimda tirgak boʻlib, koʻmakchimga aylangan. Eng muhimi, bugungidek eʼtibordan ularning kayfiyati yaxshi. Biz ham yer egasiga aylanganimiz oʻgʻil-qizlarimning rejalarini oʻzgartirib yubordi. Endi farzandlarimni oʻqitib, oliy maʼlumotli qilaman. Chunki daromad manbaim bor, — deydi Dilnavoz.

Tumandagi mahallalarda “yettilik”dan tashqari “Keksalar maslahat kengashi” faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Kengashlar, ularning faol aʼzolari orasidan el kayvonilari, gap-soʻzi keskir, fidoyilar saralanib, tuman maslahat kengashi tuzilgan. Yoshi yetmishdan oʻtgan boʻlsa-da, mahalla uchun xizmatdan tolmayotgan Juma Sodiqov, Yusuf Hakimov, Ziyodulla Choriyev kabilar ana shu kengash aʼzolari.

Moʻminquillik Bahrom bobo Abdul-layevning eslashicha, Oltinsoy deganda, odamlarning koʻz oʻngida sanoati rivojlanmagan, iqtisodiy koʻrsatkichlari past, hatto aytishga arzigulik bozori ham yoʻq bir hudud gavdalanar edi. Lekin bugun Oltinsoyga kelgan kishi borki, bu tasavvurlar koʻp ham haqiqat emasligiga shohid boʻladi. Tumanda qisqa vaqt ichida korxontiqisodiy koʻrsatkichlarning yuqori surʼatda oʻsishi kuzatildi. Jumladan, 2023-yilda hududda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 194 milliard soʻmni tashkil etdi. Bunda, albatta, investitsiya loyihalarining ulushi katta. Tumanda oʻtgan yilning oʻzida 21,1 million dollar xorijiy sarmoya oʻzlashtirilgan. Misol uchun, Oltinsoyning tabiiy boyliklarga toʻla togʻlaridan koʻmir qazib olish loyihasi 15 million dollar toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiya jalb qilingan. Oʻtgan yilning oʻzida mahallalarda 347,9 milliard soʻmlik 62 ta hududiy loyiha ishga tushirilib, 429 ta yangi ish oʻrni yaratilgan. Togʻli Xoʻjaipok mahallasida gips ishlab chiqarish loyihasi yoʻlga qoʻyilishi rejalashtirilgan. Loyiha ishga tushirilgach, yiliga 45 ming tonna mahsulot tayyorlanadi. Buning natijasida yana 50 ga yaqin yangi ish oʻrni ochiladi.

Oltinsoyda aksar mahallalarining asosiy drayveri — chorvachilik. Tarmoqni jadal rivojlantirish xalqimizga arzon va sifatli goʻsht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qilayotgan fuqarolar bandligini taʼminlash va daromadlarini koʻpaytirishda muhim oʻrin tutadi.

Oltinsoy tumanida bugun 14 ta chorvachilik kompleksi boʻlib, qariyb 2000 bosh naslli qoramol parvarish qilinmoqda.

Oʻz navbatida, aholining bandligi oilalar farovonligiga, farovonlik esa hududlar obodligiga xizmat qiladi. Mana shu obod manzillarda skuterini gʻizillatgancha sayr-u sayohat qilib yurgan Bahrom boboning bildirishicha, tumanni qoq ikkiga boʻlib oquvchi soylikning nomi oldin Tentaksoy boʻlgan va bahorning yogʻinli kunlarida aholi ekinlarini set tashqini bilan bezor qilgan soyga odamlar shunday nom bergan.

Oʻtgan asrning 80-yillari boshida yangi tuman sifatida tashkil etish koʻzda tutilgan bu hududga kelgan davlat arbobi Sharof Rashidov bundan buyon bu soy nomi Tentaksoy emas, Oltinsoy boʻlishini taʼkidlagan. Chunki soyni jilovlasa va manfaatli ishlatsa, bu yerning oltin qoʻllari oltin manzillarni yaratishini ayrgan.

Uzoq yillar tuman Oltinsoy atalsa-da, goʻyo faqat endigina uning har bir mahallasi oltin yangligʻ tovlana boshlagandek va kishilarni oʻziga jalb qilayotgandek.

Sarvar TOʻRAYEV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O‘ZBEKISTON
STRATEGIYASI 2030“SERVIS DAVLAT”
byurokratiyaga to‘la barham beradimi?Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

2024-2025-yillarda davlat xizmatlarining 100 tasini elektronlashtirish vazifasi qo‘yilgan. Aholi va tadbirkorlardan 10 turdagi hujjat (ma‘lumot)ni talab etish bekor qilinadi. Shu bilan birga, 20 turdagi xizmatning muddati va talab etiladigan hujjatlar soni qisqaradi.

Keyingi uch-to‘rt yilda avtomototransport vositalari soni juda ko‘paydi. Bu o‘z-o‘zidan shu bilan bog‘liq ishlarni optimallashtirish vazifasini kun tartibiga chiqarmoqda. Shundan kelib chiqib, dasturda avtomototransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibotlarini soddalashtirish ham belgilangan.

Shu paytgacha ham sohada ko‘p ish qilindi. Masalan, yaqin-yaqingacha uyini sotayotgan odam kamida to‘rtta idoraning eshigida navbat kutishga majbur edi. Kommunal to‘lovlardan qarzdor emasligini isbotlash uchun qog‘oz shaklidagi hujjat to‘planardi. Bugun bunday ma‘lumotlar notarial idoraning o‘zida aniqlanadi. Bunda sotuvchi ortiqcha yugur-yugurdan, oluvchi esa soxta ma‘lumot sabab kommunal to‘lovlardan qarzga botgan uy sotib olish xataridan xalos bo‘ldi.

Yana bir kichik tahlil. Dastlab 2018-yil 1-yanvardan “Bir darcha” tamoyili asosida davlat xizmatlari markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. O‘tgan davr ichida markazlar ko‘rsatayotgan xizmat turlari 8,5 barobar oshib, 37 tadan 335 taga yetdi. Samaradorlik ham shunga yarasha bo‘ldi. Aholiga 60 millionga yaqin xizmat ko‘rsatildi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 591 ta xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Davlat organlari aholi va tadbirkorlardan talab qiladigan 120 turdagi hujjat va ma‘lumotnoma bekor qilindi. Natijada byurokratiya — qog‘ozbozlik sezilarli darajada qisqardi.

Shuningdek, 300 dan ortiq xizmat ko‘rsatish tartibi soddalashtirilgan. Ya‘ni xizmat ko‘rsatish vaqti hamda talab etiladigan hujjatlar soni 2 barobar qisqartirildi. Davlat organlari mavjud ma‘lumotlarni fuqarolardan talab qilmasdan, “Elektron hukumat” tizimi orqali olishi yo‘lga qo‘yildi. Natijada yiliga o‘rtacha 20 milliondan ziyod aholi ortiqcha qog‘ozbozlikdan ozod bo‘ldi. Aholining

Davlat dasturida bu borada o‘zgarishlar nazarda tutilganmi?!

— “Aholining yagona elektron reyestri” axborot tizimi joriy etiladi, — deydi Adliya vazirligi mas‘ul xodimi A.Maxsudov. — Ushbu elektron reyestrdagi jismoniy shaxsga doir 36 turdagi ma‘lumot avtomatik shakllantiriladi va doimiy yangilab boriladi. Kelgusida davlat va nodavlat xizmatlarni ko‘rsatish va boshqa munosabatlarda ushbu elektron reyestr yagona axborot manbai bo‘ladi. Ma‘lumotlarda chalkashliklar kuzatilmadligi uchun davlat organlari shaxsga doir ma‘lumotlarni real vaqt rejimida “Aholining yagona elektron reyestri” axborot tizimiga taqdim etib boradi. Umuman olganda, davlat xizmatlarini raqamlashtirish ko‘lami yanada kengayadi. Bugun yechimini kutayotgan masalalar hal etilib, “Servis davlat” tizimi yaratiladi.

Joriy yil 1-martdan boshlab yoshlarning IT sertifikat xarajatlarini qoplash va o‘quv markazlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yana ikkita yangi xizmat ishga tushirildi. Albatta, sohada xizmat turlarini kengaytirish uchun yetarlicha shart-sharoit yaratilishi kerak. Davlat dasturida bu bo‘yicha ham aniq vazifa belgilangan. Masalan, fuqarolarning biografik va biometrik ma‘lumotlarini yig‘ishga mo‘ljallangan zamonaviy mobil qurilmalar xarid qilinadi. Ular uchun yangi dasturiy ta‘minot ishlab chiqiladi. Shundan so‘ng qurilmalar Ichki ishlar, Tashqi ishlar va Adliya vazirliklarining ma‘lumotlarni yig‘ish punktlariga beriladi. O‘z-o‘zidan xizmat sifatiga ijobiy ta‘sir qiladi.

E‘tiborli jihatlardan yana biri, davlat xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha axborot tizimlarida blank shakllari va arizalarni avtomatik tarzda to‘ldirish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun davlat xizmatini ko‘rsatadigan idoralarda QR kodlar joylashtiriladi. Fuqaro ushbu QR kodlarni skaner qilish orqali avtomatik tarzda arizalarni shakllantirish va to‘ldirishi mumkin bo‘ladi.

Tizimda xizmat turlari ko‘payishi vaqt va energiyani tejaydi, turli to‘siq va buyruqbozlikka chek qo‘yadi. Ishingiz bitishi uchun kimningdir qosh-qovog‘iga qarashga majbur bo‘lmaysiz. Bu esa hayotimizda tub o‘zgarish yasaydi. Og‘irimiz yengil, uzog‘imiz yaqin bo‘ladi. Shu orqali ish unumdorligi oshadi. Xalqning hukumatga ishonchi ortadi.

Uni yanada mustahkamlash uchun ham davlat dasturida qator maqsadlar belgilab olingan.

Jumladan, mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini “aholi manfaatlariga xizmat



arilar uyadagi haroratni bir maromda ushlab turadi. Tartib buzilsa, bol olish imkonsiz bo‘lib qoladi. Tabiat mo‘jizasi bo‘lgan mitti jonzorlar ana shunday temir qonun asosida ishlaydi.

Ijro hokimiyatida ham xuddi shunday temir intizom, aniq vazifa bo‘lishi shart. Usiz natijaga erishish mushkul. Xo‘sh, davlat dasturida bu borada qanday o‘zgarishlar nazarda tutilmoqda?

— Vazirligimiz mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilish, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga

masalalarni mahalla doirasida hal etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Buni “mahalla yetiligi” misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Mazkur tizim xalqimizga ko‘rsatayotgan xizmatlarning katta qismini zimmasiga olgan. Shu ma‘noda, “mahalla yetiligi” davlat xalq xizmatchisi tushunchasining timsoli, desak mulohaza bo‘lmas.

Davlat dasturidan mahallaning yagona platformasini joriy qilish vazifasi o‘rin olgan. Mazkur platforma hamda “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” platformalari o‘zaro integratsiya qilinadi. Mas‘ullar ishi osonlashadi. “Mahalla yetiligi” uchun yana bir qulaylik: ular xonadonga kirganda to‘ldiriladigan yagona savolnoma ishlab chiqiladi. Bu bilan ijtimoiy himoya ko‘rsatishning aniq va o‘zgarmas mezonini tayin qilinadi.

— Mahalla faoliyati raqamlashtirilishi haqida eshitib, rosti, quvondik, — deydi Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanidagi Bo‘ston mahallasi raisi Muhabbat Boymatova. — Yangiliklar ko‘pgina hujjatlarni umumlashtirishga, qisqartirishga zamin bo‘lar ekan. Shu orqali ortiqcha qog‘ozbozlikka barham beriladi. Ortiqcha hujjat yig‘ish kamayadi. Chunki yangi platformada mahalla aholisi bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlar jamlanadi. Hatto mahallada yashovchilar o‘rtasida nikoh munosabatlari haqidagi ma‘lumotlar ham bo‘lar-kan. Ya‘ni FHDIYO organlari tomonidan nikoh uchun berilgan ariza yoki nikohning bekor bo‘lgani to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiritilgan ekan. O‘zgarishlar ishimizni tez va oson bajarishda qo‘l kelishi tayin.

Darhaqiqat, yangi platforma mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini to‘la qamrab oladi. Ya‘ni ijtimoiy himoya, Kadastr, Soliq qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi kabi idoralar bazalari bilan integratsiya qilinadi. Qolaversa, platformaga mahalla aholisi salomatligi, joylarda o‘tkazilayotgan patronaj to‘g‘risida ma‘lumotlarni ham kiritish amaliyoti tatbiq etiladi. Bu har bir fuqaro haqidagi ma‘lumotlarni to‘laligicha mahalla platformasida jamlash imkonini beradi.

Endi “mahalla yetiligi” orqali uyma-uy yurib yig‘ilgan ma‘lumotlar “Mahalla balansi” yagona elektron platformasida jamlanadi. Yangi platformada mahalla aholisiga ko‘rsatilgan ijtimoiy yordamlar bilan tanishish mumkin bo‘ladi. Ayni paytda ushbu yordamlardan foydalanishi kerak bo‘lgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlar ham joy oladi. Ya‘ni mahalla aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday, ularga o‘z vaqtida e‘tibor berilyaptimi yoki yo‘q, degan savollarning barchasiga platformadan javob topiladi. Bu esa ijro hokimiyati vakillari faoliyati samaradorligini xolis va halol baholash imkonini beradi. Chunki platformada mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar

faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori qachon, qaysi yumushni bajargani o‘z aksini topib boradi. Ha, endi bajaryapmiz, amalga oshirildi, degan quruq gap bilan qutulib bo‘lmaydi.

Keyingi vaqtlarda aholi bandligini ta‘minlashda katta o‘zgarishlar bo‘layotir. Ayniqsa, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalarga ko‘rsatayotgan ko‘maklar tahsinga loyiq. Ammo ish bor joyda kamchilik, xatolar ham bo‘lishini unutmashlik kerak. Ularni tuzatish uchun avvalgi faoliyat tahlil etilishi,



kim qayerda, qaysi sabab tufayli xatoga yo‘l qo‘ydi, degan savolga aniq javob bo‘lishi kerak. Yangi platformada faoliyat tahliliga e‘tibor qaratilgani bejiz emas. Endi kasbga o‘qitilgan, tadbirkorlik qilish maqsadida subsidiya, grant va kredit olgan shaxslarning faoliyati natijalari kuzatib boriladi. Ushbu monitoring kamchiliklarni aniqlab, ularni takrorlamaslikka undaydi. Ayni paytda “mahalla yetiligi” har bir shaxsga alohida yondashuv asosida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi, zarurat tug‘ilganda yordam berishiga sabab bo‘ladi.

Bandlikni ta‘minlash haqida qancha ko‘p gapirsak, shuncha kam. Chunki mavjud muammolarning aksariyati ishsizlik bilan bog‘liq. Agar oilada hech bo‘lmasa bir kishi yetarli darajadagi daromadga ega bo‘lsa, ijtimoiy masalalar kun tartibiga chiqishi kamayadi. Bizda esa uzoq yillar mobaynida ish o‘rni yaratish, bandlikni ta‘minlashga yetarlicha e‘tibor qaratilmadi. Belgilangan vazifalar ijrosi borasida oqsash kuzatildi. Quyi bo‘g‘inda muammoni hal etishda goh yetarlicha imkon, ba‘zida fidoyilik yetishmadi.

Bugun ijtimoiy himoya, ish o‘rni yaratish bilan bog‘liq vazifalar ko‘p berilayotgani sababi ham shunda. Endi yo‘qotilgan vaqt va imkoniyatlar o‘rmini qoplashimiz kerak. Buning uchun, albatta, zamon bilan hamqadam bo‘lish shart.

“Mahalla balansi” platformasining joriy etilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad ham aholini qiyayotgan masalalarni vaqtida aniqlab, barham berish. Mazkur platformaning yana bir yutuqli jihat shundaki, endi ish beruvchi va ish izlayotganlar bir-birini topishga qiynalmaydi. Ya‘ni yagona milliy

mehnat tizimi elektron bazasi asosida ikki tomon bir-biri bilan bog‘lanadi.

Shuningdek, mahalla faollari hududdagi ish izlovchilar haqidagi ma‘lumotlarni xususiy bandlik agentliklariga muntazam va bepul taqdim etib borishi amaliyoti kiritiladi. Unda uyma-uy yurib yig‘ilgan ma‘lumotlardan foydalaniladi. Demak, “mahalla yetiligi” ishsizlar masalasini hudud imkoniyatlaridan tashqarida ham hal etadi. Endi mahalla nafaqat o‘z hududi imkoniyatidan tashqariga chiqi oladi, balki xorijdagi yurtodsharimiz uchun ham yordam qo‘lini cho‘zishi mumkin bo‘ladi.

Yoshlik shunday davrki, bu vaqtda ko‘rsatilgan kichik e‘tibor ham insonning yuragida butun umr saqlanib qoladi. Ayniqsa, u oilasi, yaqinlaridan olisda bo‘lsa. Xorijda muayyan muddat yashab kelganlar yaxshi biladi, chetda yurgan kishi o‘zbekona oqibatni, mehr va e‘tiborni sog‘inadi.

Bugun ayrim yigit-qizlar ta‘lim olish, kasb o‘rganish va yurt koriga yarash uchun xorijda yuribdi. Davlat dasturida ularga ham alohida e‘tibor berilyapti. Endi mahalla uchun yaratiladigan yangi platforma asosida “Xorijdagi yoshlar balansi” shakllantiriladi. Ushbu balans orqali xorijda tahsil olayotgan fuqarolarni “Yoshlar daftari”ga kiritish imkoniyati yaratiladi. Chetda ta‘lim olayotgan yigit-qizlar yurtidan uzoqda bo‘lsa-da, davlatimiz mehr va e‘tibordan bahramand bo‘ladi.

Yurtimizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, o‘z yo‘lini topayotgan yigit-qizlar talaygina. Endi mahalla fuqarolar yig‘inlarida yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar haqida axborot burchaklari tashkil etiladi. Ular ko‘rgazma materiallari bilan ta‘minlanadi. Bu ham “mahalla yetiligi” ishini osonlashtirib, targ‘ibot vazifasini o‘taydi. Zarur vaqtda mahalla faollari va aholi orasidagi tushunmovchiliklarning oldini oladi.

Yuqoridagi o‘zgarishlar davlat dasturida bir necha maqsadlarda ajratib ko‘rsatilgan.

Yaqin yillargacha yurtimizda davlat xizmatlari bilan bog‘liq qiyinchilik ko‘p edi. Ortiqcha qog‘ozbozlik va buyruqbozlik odamlarni bezdirgandi. Hatto abiturient o‘qishga hujjat topshirish uchun mahalla idorasidan ma‘lumotnoma olib kelishi shart edi. Bir safar yashash joyim haqidagi ma‘lumot yo‘qligi uchun o‘qishga hujjat topshira olmagandim.

xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish vazifasiga mas‘ul, — deydi Adliya vazirligi mas‘ul xodimi Abdullo Qo‘ldoshev. — Vazifani bajarishga allaqachon kirishganmiz. Masalan, hozir vazirlik tomonidan mahalliy hokimliklar va respublika ijro etuvchi organlarining funksiyalari ro‘yxati shakllantirildi. Shu orqali endi bu organlarning bir-birini takrorlovchi 30 ta funksiyasi maqbullashtirildi. Mahalliy hokimliklar faoliyatiga xos bo‘lmagan, ammo ularga yuklatilgan 80 ta vazifani bekor qilish uchun tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Mazkur o‘zgarishlar qonunchilikni ham takomillashtirish zaruratini tug‘diradi. Shu bois, “Mahalliy davlat hokimiyati organlari to‘g‘risida”gi qonunni takomillashtirish borasida ishlanyapti.

Bunday o‘zgarishlar ish unumi oshishi va javobgarlik hissinu kuchaytiradi. Negaki, bir-birini takrorlovchi vazifalar ishning asl egasini topish, sustkashlik uchun ta’sirchan choralar ko‘rish imkoniyatini cheklaydi. Kutilayotgan yangiliklar samarasi o‘laroq, mahalliy hokimlik ijro organlari xizmat doirasidagi vazifalariga bajaradigan bo‘ladi. Kuchi va vaqtini to‘liq shu ishga sarflaydi. Ular xalqni qiyayotgan muammolarni tezkorlik bilan yechishida qo‘l keladi. Zero, mahalliy davlat hokimligi tom ma’noda xalq xizmatchisi bo‘lishi kerak. Shu bois, bugun ko‘plab

qilish” tamoyili asosida tashkil etish belgilab qo‘yilmoqda. Mazkur tamoyil ham “Servis davlat” tushunchasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ya‘ni davlat dasturida viloyat va tuman (shahar) darajasidagi hokimliklar vazifa va funksiyalarining aniq chegarasini belgilash nazarda tutilmoqda. Unga ko‘ra, mahalliy hokimliklar va respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining bir-birini takrorlovchi funksiyalari maqbullashtiriladi. Chunki ijro hokimiyatida o‘xshash vazifalar bo‘lishi chalkashliklarga sabab bo‘ladi.

Biz asalarlarning barchasi bir xil vazifa bajaradi, deb o‘ylaymiz. Aslida, ularning inida temir tartib o‘rnatilgan. Har bir arining o‘z vazifasi aniq belgilangan. Shu bois, asal yig‘ish miqdori sira o‘zgarmaydi, muhimi, gul topilsa bo‘ladi. Asal tarkibiy jihatdan issiq kunlarda suyuqlik, oqib ketishi kerak. Ammo bir guruh

birgina tashkilotlarga borib-kelishi bilan bog‘liq 300 milliard so‘mdan ko‘p mablag‘i tejaldi.

Yaratilgan qulayliklar o‘z yo‘liga, ammo hamon ayrim xizmatlar uchun fuqarodan qog‘oz shaklidagi ma‘lumotlar so‘ralishi odamni o‘ylantiradi. Masalan, hozir pasport ma‘lumotlari orqali har bir shaxsning qaysi manzilda doimiy, qay hududda vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tganini bilish mumkin. Shu sabab pasportga muhr bosish amaliyoti bekor qilindi. Shunday ekan, bank plastik karta berish uchun bizdan doimiy manzillimiz haqidagi ma‘lumotni qog‘oz shaklda so‘rashi qanchalik to‘g‘ri?!

Fuqarolar haqida ma‘lumotlar davlat xizmatlari portalida jamlangan. Zarur hollarda barcha idora va tashkilotlar shaxs haqidagi ma‘lumotlarni o‘zi aniqlab olsa bo‘lmaydimi?





Tahlil va taqqos

ERKIN BOZOR, INNOVATSION USLUB,
SHARTNOMAVIY KAFOLATLARAbdurauf QORJOV,
iqtisodiy sharhlovchi

2023-yil 12-dekabr kuni davlatimiz rahbari imzolagan “Qishloq xoʻjaligida erkin bozor munosabatlari yanada rivojlantirishning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonga binoan, birjada qisqa vaqtda “paxta xomashyosi seksiyasi” tashkil etilganini mutaxassislar, nainki ushbu bozorda, balki mamlakatimiz agrar tarmogʻida keyingi paytda roʻy bergan eng muhim voqealardan biri sifatida baholamoqda. Unda 2024-yil hosilidan xoʻjaliklar va klasterlar oʻrtasida paxta yetkazib berish yuzasidan fyuchers shartnomalari tuzilishiga sharoit yaratildi. Bunga har bir hudud boʻyicha alohida oʻtkazilgan savdolar natijasi asos boʻldi.

— Shartnomaning boshlangʻich qiymati Nyu-York birjasidagi paxta tolasining oxirgi 12 oydagi oʻrtacha narxiga muvofiq belgilandi, oʻrtacha narxlar esa talab va taklif asosida shakllanadi, — deydi birja bosh makleri Islombek Ibrohimov. — Bu, oʻz navbatida, paxta xomashyosi narxining shaffollik va bozor tamoyillariga tayangan holda shakllanishini taʼminladi. Natijada 2024-yil yanvar-fevral oylarida qariyb 28 mingta fermer xoʻjaligi tomonidan fyuchers shartnomasi asosida 1,7



Yangicha yondashuvlar

Davlatimiz rahbari yaqinda Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida boʻlib, aholi yashash sharoitlari bilan tanishish jarayonida tadbirkorlikni rivojlantirish, tomorqa va uy xoʻjaliklaridagi imkoniyatlarni toʻliq ishga solish orqali yuksaltirish turmushini yuksaltirish muhimligini taʼkidlagan edi.

Ayni kunda har bir mahalla geografik joylashuvi hamda imkoniyatidan kelib chiqib, oʻz rivojlanish nuqtasi— drayver yoʻnalishiga ega boʻlib bormoqda. Bu esa oʻsha hududda kompleks rivojlanish imkoniyatini beradi. Natijada faoliyat samaradorligi oshib, aholi orasida tadbirkorlar safi kengaymoqda.

Namangon viloyatining Norin tumani daryo boʻyida joylashgani bois, baliqchilik, koʻchatchilik kabi yoʻnalishlar aksariyat mahallalarning oʻsish nuqtasiga aylangan. Tumanda zaxkash yerlar ham koʻp. Bunday maydonlarda dehqonchilik qilish oson emas. Shu bois, ariq, zovur chetlariga koʻpincha terak koʻchatlari ekiladi.

Bu tajriba soʻnggi yillarda zax miqdori koʻp katta dala maydonlarida ham qoʻllanilyapti. Mutaxassislar fikricha,

terak va pavlovniya kabi daraxt navlari namgarchilikni kamaytirish xususiyatiga ega. Ha, koʻchat ekish, bogʻ yaratish egzu amal. Otalarning farzandiga atab daraxt ekishi ham avloddan avlodga oʻtib, qadriyat darajasiga koʻtarilgan. Yurtimizda terak oʻstirish boʻyicha qadimdan katta tajriba toʻplangan. Qishloqdagi har bir xonadonda osmonga boʻy choʻzgan teraklar havo sofligini, yangi uylar yogʻochini taʼminlab kelgan.

Maʼlumotlarga koʻra, ayni paytda yurtimizning turli iqlim va tuproq sharoitida terakning 40 ga yaqin turi, 90 dan ortiq navi parvarishlanadi. Eng muhimi, terak barcha turdagi daraxtlar orasida eng yaxshi havo tozalovchi hisoblanadi. Karbonat angidridni yutib, igna bargli daraxtlarga qaraganda 10 barobar koʻp kislorod hosil qiladi.

Hududdagi Ravot hamda Polvonkoʻl mahallalarida ham har bir tomorqaga, shuningdek, bir necha gektar dalaga ana shunday daraxt koʻchatlari ekiladi. Bu esa tuproq unumdorligi oshishini taʼminlaydi. Teraklar voyaga yetgach, qurilish ashyosi sifatida yaxshigina haq evaziga sotiladi.

Hozir ushbu mahallalarda 40 dan ziyod

tadbirkorlik subyekti ayni yoʻnalishda faoliyat koʻrsatmoqda.

— Daraxt oʻzimizdan chiqadi, koʻchatini ekib, to rostmana daraxt boʻlgancha parvarish qilamiz, — deydi ravotlik Maʼmurjon Sotimov. — Buyurtmachilarga kesib, turli oʻlchamdagi qurilish yogʻochlari tayyorlab



beramiz. Birgina shu sexning oʻzida 15-20 qishloqdoshim ishli boʻldi. Qishlogʻimizda 40-50 ta shunday sex bor. Endi hisoblang, bunda qancha odam ishli boʻlganini?

Terakning, asosan, “Oʻzbekiston” naviga talab yuqori. Mahsulotlarimizni mavsumga qarab nafaqat viloyat, balki yurtimizning

boradagi ishtirokini soddalashtirish maqsadida xarid.uzex.uz portali ishga tushirilgan edi. Oʻtgan yildan boshlab bu tizimda toʻgʻridan toʻgʻri shartnomalar boʻyicha amalga oshiriladigan davlat xaridlarini elektron tarzda rasmiylashtirish imkoniyati yaratildi hamda etender.uzex.uz saytida manfaatlar toʻqnashuvi holatlarini aniqlash mexanizmi joriy etildi.

Yangi tizim yordamida xarid komissiyasining aʼzolari va xarid ishtirokchilari oʻrtasidagi affilanganlik xususiyatlari hamda yetkazib beruvchilar oʻrtasidagi manfaatlar

sertifikat uchun 13 ming 360 soʻmni tashkil qildi.

Sertifikatlar boʻyicha oʻtkazilayotgan birja savdolarida xaridor sifatida yakka tartibdagi tadbirkorlar, mahalliy korxonalar yoki xorijiy kompaniyalar erkin ishtirok etishi mumkin.

“Yashil energetika” sertifikatlari birja savdolari orqali sotilishi qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini amalga oshirish uchun qoʻshimcha moliyalashtirish manbalarini shakllantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar oʻz mahsulotlarini Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlar bozoriga eksport qilishda imtiyozlardan foydalanish imkonini beradi.

Manfaatlar toʻqnashuvi
roʻy bersa...

Ilgari OʻzRTXBda atigi 15-20 tovarga doir davlat xaridlari boʻyicha savdolar oʻtkazilgan boʻlsa, endilikda ular soni 30 mingdan ortib ketgan. 2023-yilda birjaning davlat xaridlari boʻyicha xarid.uzex.uz elektron savdo tizimida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2022-yilga nisbatan 7 foiz oshib, 39,4 trillion soʻmni tashkil qildi. Bunda budget va korporativ buyurtmachilari mablagʻlarining rejalishi 13 foiz oʻsib, 6,6 trillion soʻmga teng boʻldi.

Nazarimizda, shu oʻrinda davlat xaridi, uning elektron savdosi nima, budget va korporativ buyurtmachilari bir-biridan qanday farqlanadi, degan savollarga aniqlik kiritib oʻtish foydadan xoli boʻlmaydi.

— Davlat xaridi deganda, tovar (ish va xizmat)larni davlat buyurtmachilari tomonidan pullik asosda olish tushuniladi, — deydi “OʻzRTXB” AJning davlat xaridlarini tashkil etish boʻlimi boshligʻi Joʻrabek Abdugahhorov. — Elektron davlat xaridlari — elektron doʻkon va boshlangʻich narxni pasaytirish uchun oʻtkaziladigan aukcion kabi maxsus axborot portalining dasturiy-texnik kompleksi orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish usuli. Davlat buyurtmachisi esa mazkur xaridlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi.


Yana bir jihat. Davlat xaridlarini amalga oshirishning elektron doʻkon, aukcion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender shakllari mavjud.

2021-yilda tadbirkorlarning davlat xaridlarida qatnashishini kengaytirish hamda buyurtmachi va yetkazib beruvchilarning bu

Oʻzbekistonda 2019-yildan boshlab Tovar-xomashyo birjasida chiroyli sonlar kombinatsiyasiga ega uyali telefon raqamlarini sotish boʻyicha yangi savdo platformasi va mobilraqam.uzex.uz veb-sayti faoliyat koʻrsatib keladi.

Oʻtgan yillar davomida onlayn mobil raqamlar kimoshdi savdosida 13,7 mingta “chiroyli” raqam sotilgan. Hozirgi paytda 8,8 mingta raqam savdoda oʻz egalarini kutib turibdi.

Kimoshdi savdosi qoidalariga koʻra, gʻolib besh kun ichida tuzilgan bitim boʻyicha barcha



toʻqnashuvi holatlari elektron tizim tomonidan avtomatik tarzda aniqlanadi. Bunday holatlar roʻy bergan taqdirda, elektron tizim xarid komissiyasiga affilangan ishtirokchilarni elektron savdolaridan chetlashtirish imkonini beradi. Mazkur mexanizm elektron tanlash va tender savdolarida gʻolibni xolislik mezonlari asosida aniqlash va davlat xaridlarini sohasida qonunbuzilish holatlarining oldini olishda asosiy “gʻov” boʻlib maydonga chiqadi.

Avto va mobil raqamlarga
talab yuqorilgicha qolmoqda

Oʻtgan haftada koʻpchilik qiziquvchilarning eʼtiborini tortgan kimoshdi savdosining eng qimmat loti egasini topdi. Oʻzbekistonda 20 000-00-00 mobil raqami elektron auksionda sotildi.

20-mart kuni Tovar-xomashyo birjasining mobilraqam.uzex.uz tizimida oʻtkazilgan raqobatli aukcion savdolari natijasiga koʻra, 1 milliard 70 million soʻmlik mobil raqami sotildi. Ushbu koʻrsatkich birjaning mazkur elektron savdo tizimi ishga tushirilgan paytdan buyon eng maksimal narx hisoblanadi.

Mazkur mobil raqam jismoniy shaxsga moʻljallangan boʻlib, uning boshlangʻich narxi 200 million soʻmni tashkil qilgan. Uch soatdan koʻp vaqt mobaynida davom etgan onlayn-savdolarida 10 ta talabgor ishtirok etib, ular tomonidan 87 marotaba narx taklif etilgan. Buning natijasida mobil raqamning boshlangʻich bahosi 5 barobardan ortiqqa oʻsdi.

Endilikda aukcion gʻolibi mobil raqamni 10 ish kuni davomida uyali aloqa operatorida rasmiylashtirishi kerak.

moliyaviy majburiyatlarni qoplashi va keyingi oʻn kun ichida uyali aloqa kompaniyasidan raqamni rasmiylashtirishi kerak.

2023-yilda avtoraqam.uzex.uz savdo tizimida 396,1 milliard soʻmlik 87 mingdan ziyod avtoraqamlar onlayn-auksion orqali sotilgani budget tushumlarining yanada oshishiga xizmat qildi. Binobarin, oʻtgan yil kuzidan boshlab mijozlarga qoʻshimcha qulaylik yaratish maqsadida tizimda “avtobid” yangi xizmat turi joriy etildi.

— Mazkur funktsiya xaridlarini avtoraqamlar boʻyicha oʻtkazilayotgan onlayn-auksionlarni uzluksiz kuzatib, muntazam ravishda oʻzlarining narx takliflarini qoʻlga kiritib borish majburiyatidan ozod etadi, — deydi birja axborot xizmati rahbari Hikmatillo Tillaboyev. — Buning evaziga talabgor avtoraqamni xarid qilish uchun oʻzi rozi boʻlgan maksimal narxni oldindan oʻrnatish imkoniga ega boʻladi. Bunda boshqa mijozlar oldindan oʻrnatilgan mazkur narx chegarasidan xabardor boʻlmaydi.

Aukcion davomida “avtobid” funktsiyasidan foydalangan savdo ishtirokchisi avtoraqamni bozorda shakllangan holatdan kelib chiqib, berilgan soʻnggi eng yaxshi narxdan yuqoriroq yoki oldindan oʻrnatilgan maksimal qiymatda xarid qilishi imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, u raqobatli tartibot yakunlangunga qadar, maksimal narx boʻyicha avval berilgan limitli buyurtmasini bekor qilishi yoki uning qiymatini oʻzgartirishi ham mumkin.

Aukcion jarayonida amaldagi narx oldindan belgilangan narx limitidan oshib ketgan taqdirda, “avtobid” funktsiyasidan foydalangan ishtirokchiga tegishli SMS-xabar yuboriladi.

Oʻz navbatida, u savdolarida oʻz ishtirokini anʼanaviy tarzda davom ettirishi yoki yangi maksimal narxini oʻrnatishi mumkin boʻladi.

Xarid qilingan avtoraqamlarni rasmiylashtirish IIV YHXBB boʻlinmalar tomonidan moliyaviy majburiyatlar toʻliq qoplangan sanadan boshlab 30 kun mobaynida amalga oshiriladi.

Joriy yilda ham avtoraqam.uzex.uz savdo tizimidagi aukcionlar yangi qulayliklardan foydalangan holda davom etyapti. Masalan, 2024-yil boshidan buyon 178,7 milliard soʻmlik 44 ming 241 ta avtoraqam sotilgan. Amalga oshgan bitimlarning 97 foiz ulushi jismoniy va 3 foizi yuridik shaxslarga toʻgʻri keladi.

Tuzilgan bitimlarning bittasi boʻyicha oʻrtacha qiymat 4,1 million soʻmni tashkil etib, sotilgan avtoraqamlarning eng past bahosi 1,7 million soʻm, eng qimmat avtoraqamning bahosi esa 337,6 million soʻmga teng boʻlgan.

Bozor uslublari qanday
samara beradi?

Keyingi yillarda Respublika tovar-xomashyo birjasi faoliyatini takomillashtirish hamda tovar bozorlarida shaffollikni taʼminlash va ilgʻor raqamli texnologiyalarga asoslangan bozor mexanizmlarini joriy qilishda bir qator ijobiy natijalarga erishildi.

Oʻtgan yili birja ilk bor “Fitch Ratings” xalqaro agentligining “B” (barqaror kutilma) reytingini oldi hamda ISO 9001:2015 “Sifat menejmenti tizimi” xalqaro standarti boʻyicha reserifikatsiyadan oʻtdi, ISO 37001:2016 “Korupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi” xalqaro sertifikat talablariga muvofiqligini tasdiqladi.

Mazkur sertifikatlar koʻrsatlayotgan birja xizmatlarini yuqori sifat darajasini va kompaniyada jahon standartlariga javob beradigan korupsiyaga qarshi kurashish tizimi amalda mavjudligini tasdiqlaydi.

2023-yil yakunlariga koʻra, “Oʻzbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” AJning barcha savdo platformalarida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 2022-yilga nisbatan 7 foiz oʻsib, 146,8 trillion soʻmga yetdi. Tuzilgan bitimlarning qariyb 71 foizi birja savdolariga, qolgan 29 foizi elektron tijorat savdo tizimlariga toʻgʻri kelgan.

Shuningdek, birjada tuzilgan tashqi savdo bitimlarining hajmi 2022-yilga nisbatan 48 foiz oʻsib, 700,5 million dollardan oshdi. Ayni kunda OʻzRTXBning xorijiy mamlakatlarda 42 ta savdo maydonchasi faoliyat koʻrsatyapti.

Xorijiy ekspertlar va konsalting kompaniyalar ishtirokida ishlab chiqilgan Respublika tovar-xomashyo birjasining rivojlanish strategiyasida birjaning IT infratuzilmasi va savdo platformalarini modernizatsiya qilish, koʻrsatlayotgan birja xizmatlarining turini kengaytirish, tashqi savdo hajmini oshirish hamda yangi birja savdo vositalarini joriy etish boʻyicha olib borilayotgan ishlar joriy yilda ham davom ettiriladi.

HAM YERGA, HAM CHOʻNTAKKA FOYDA

boshqa hududlaridan ham kelib olib ketishadi.

Quvonarlisi, mahalladan xorijga ishlashga ketib, qaytib kelgan koʻplab yoshlar ham endi mana shunday korxonalarda mehnat qilib, yaxshigina daromad topmoqda.

— Xorijda koʻp ishladim, — deydi Xayrulla Sodiqov. — Uch yildan beri shu yerdaman. Solishtirib koʻrsam, maoshim u yerda topadigan pulim bilan deyarli bir xil. Ish ogʻir emas. Eng muhimi, ota-onam, oilam, qarindosh-urugʻlar oldidaman.

Ravot mahallasidagi terak qalamchalari yetishtiriladigan 5 gektar yer 70 dan ortiq oilaga qoʻshimcha tomorqa sifatida boʻlib berilgan. Ravotliklar bu yerda nafaqat daraxt parvarish qiladi, balki mavsumda daraxt oralariga boshqa ekinlar ekib, daromad olmoqda.

— Bu yerlar faqat sholi yetishtirish mumkin boʻlgan joylar edi, — deydi ravotlik mehnat faxriysi Poʻlatjon Parpiyev. — Lekin daromadni juda yaxshi deb boʻlmadi. Shunday sharoitda qanday qilib yer unumdorligini oshirish, daromad topish mumkinligi xususida izlana boshladik. Mutaxassislar bilan maslahatlashib, sinov tariqasida terak ekdik. Faqat ozgina hafala va mehnat qilinsa kifoya.

— Terak oʻstirish mahallamizning drayver sohasiga aylangan, — deydi mahalla fuqarolar yigʻini raisi Obidjon Otaboyev. — Qurilish mahsuloti, ayniqsa, yogʻochga har doim ehtiyoj boʻlgan. Shuning uchun uning bozori chaqqon. Aholi har qarich yerdan unumli foydalangan holda zovurlar boʻyidan ham daromad topyapti.

Mahallada bekorchining oʻzi yoʻq. Qishin-yozin ish bor. Natijada mahalla jinoyatchilikdan xoli hudud, deb topilib “yashil” toifaga kiritilgan.

Hozir Ravot va Polvonkoʻl mahallalari yogʻochni qayta ishlashga ixtisoslashgan hudud sifatida mahsulotlarini nafaqat oʻzimizga, balki qoʻshni respublikalarga ham yetkazib bermoqda.

Har bir sexda servis xizmatlari ham rivojlanyapti. Xomashyo tayyorlash, qayta ishlash hamda mahsulotni manziligiga yetkazib berish jarayonlarining kompleks amalga oshirilayotgani samaradorlikni taʼminlamoqda.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Katta hayot bilan yuzma-yuz

VATAN — ENG MUSTAHKAM SUYANCHIQ

Inson qayerga ildiz otsa, o‘sha muhitga moslashadi. Issig‘iga ham, sovug‘iga ham ko‘nikadi. Chunki bu o‘z nomi bilan Vatandir.

Kim ham Vatandan ayro, oilasidan, jon jigarlaridan yiroqda, mahalla-ko‘y, qavm-qarindosh diydoridan olisda yashashni istaydi?! Albatta, hech kim. Hamma o‘z yaqinlari diydoriga to‘yib, ular bilan birga yashagisi keladi. Ammo ba‘zan taqdir rizqini olislarga sochgan, Vatandan ayro yashashni qismat qilib belgilagan hollarni ham istisno qila olmaymiz.

Inson qayerda bo‘lsa ham tug‘ilib o‘sgan tuprog‘ining tafti u bilan birga, sog‘inch va shu tuproqqa ilhaqlik bilan yashaydi. O‘zga yurtning qonun-qoidasi, tartib-tamoyillariga qanchalik ko‘nikmasin, o‘z yurtining tayanchi va suyanchiga ham shuncha muhtoj bo‘ladi.

O‘zga mamlakatlarga ish izlab borayotgan yurtdoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash va ular bilan muloqot o‘rnatish, muammo va ehtiyojlarini o‘rganish hamda hal qilish masalalari davlatimiz e‘tibori markazida bo‘lib

kelmog‘da. Prezidentimizning 2020-yil 15-sentabrda “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” q‘ qarori mehnat migrantlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash, xorijda ishlamoqchi bo‘lgan shaxslarni talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, qaytib kelgan mehnat migrantlari bandligini ta‘minlash, shuningdek, ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi.

Yurtimizda tashkil etilgan mehnat migratsiyasi ulushi va geografiyasini kengaytirish, tashqi mehnat bozori istiqbollarini o‘rganish orqali fuqarolarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, dunyoning 30 ga yaqin davlati — Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Ruminiya, Latviya, Litva, Polsha kabi mamlakatlarning 120 dan ziyod ish beruvchi va rekrutagentliklari bilan shartnoma tuzilib, 100 mingdan ko‘proq bo‘sh ish o‘rinlari aniqlangan.

GERMANIYA BILAN HAMKORLIK

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Germaniya Federativ Respublikasining salohiyatli ish beruvchilari bilan o‘rnatilgan hamkorlik kelishuvlari doirasida e‘tiborga molik ishlar bajarilmoqda.

Xususan, hozirgi kunda Germaniyaning 20 dan ziyod yirik ish beruvchi tashkiloti bilan mehmonxona, restoran xizmati, mashinasozlik, mexatronika, hamshiralik, parvarish, yuk avtomobili haydovchisi, AKT, ishlab chiqarish, metallga ishlov berish, mexanik, elektrik, duradgorlik sohalarida o‘zbekistonlik fuqarolarni Germaniyada to‘g‘ridan to‘g‘ri ish hamda Ausbildung — dual ta‘lim orqali ish bilan ta‘minlash bo‘yicha hamkorlik qilinayotir.

Bugungi kunda agentlik nemis tilini B1 yoki B2 darajada biladigan va daraja sertifikatiga ega mutaxassislarni Germaniyada tashkiliy tarzda ish

bilan ta‘minlash ko‘lamini kengaytirish maqsadida logistika, omborchi, qishloq xo‘jalik texnikalariga xizmat ko‘rsatish, yo‘l qurilishi, o‘rmonchilik, bog‘dorchilik, vinochilik, hunarmandchilik, payvandchi, mexanik, muhandis, santexnika, isitish va havoni tozalash texnologiyasi mexanikasi kabi o‘nlab yo‘nalishlarda ish beruvchi hamkorlar bilan muzokaralar olib bormoqda.

Hududlarda faoliyat olib borayotgan “Ishga marhamat” monomarkazlarida ayni paytda tanlab olingan 520 nafar yurtodoshimiz uchun nemis tilini o‘qitish o‘quv kurslari tashkil etilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda tashqi mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik o‘rnatgan Germaniya davlati ish beruvchilari tomonidan 50 mingga yaqin bo‘sh ish o‘rinlari taqdim etilgan.



Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

HECH KIM TAQDIR HUKMIGA
TASHLAB QO‘YILMAGAN

AUSBILDUNG — DUAL TIZIM NIMA?

Ausbildung — dual tizimi muayyan ish profilari bo‘yicha ko‘nikma va bilim beradi. Germaniyadagi davlat maktablari, vakolatli muassasalar tomonidan ko‘nikma va bilim berishni o‘z ichiga oladi.

Kasbiy ta‘lim odatda ikki qismdan iborat bo‘ladi. Kasb-hunar maktabida nazariy bilim berilsa, korxonada ishlash jarayonida amaliy qism o‘rgatiladi.

— Mazkur tizim sohaga qarab 2 yildan 3,5 yilgacha davom etadi. Qatnashuvchi ushbu jarayonda sohalar bo‘yicha 750 yevrodan 1200 yevrogacha stipendiya bilan ta‘minlanadi. Bu stipendiya kamlik qilsa, haftasiga 20 soatgacha qo‘shimcha ishlashi mumkin. Faqat bu asosiy amaliyot joyiga xalaqit qilmasligi lozim, — deydi **Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bosh mutaxassisi**



Bunoyd Yo‘ldoshev. — Ausbildung tizimining qaysi sohasi sizga mos keladi? Oldin maqsad qo‘yib olish kerak. Maqsad Germaniyada o‘qib, yaxshi kadr bo‘lishmi? Unda bu tizim orqali o‘qishga borishdan oldin hamma ma‘lumotlarni o‘rganish muhimdir. Yaxshi kadr, albatta, yaxshi maosh to‘lanadi. Ausbildung tizimida 30 foiz nazariya, 70 foiz amaliyot, ya‘ni bir haftada 5 ish kun

bo‘lsa, bundan 1 kun nazariya va qolgan 4 kun amaliyot o‘tashigiz kerak. Soha uchun belgilangan jarayon yakunida nazariy va amaliy imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tishingiz talab etiladi. Ausbildung tizimi uchun nemis tilidan kamida B1-B2 darajada xalqaro sertifikatga (Gyote, ÖSD, ECL, Telc) ega bo‘lishingiz kerak.

MALAKA OSHSA, OYLIK HAM OSHADI

Xorijda ishlash istagini bildirgan yurtdoshlarimizni munosib sharoit va maosh taklif etadigan ish joylari bilan ta‘minlash jarayoni yildan yilga takomillashmoqda. Yurtodoshlarimizning kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishi uchun zarur barcha shart-sharoit yuqori darajada tashkil etilgan.

— Germaniyada ishlash istagi bo‘lgan fuqarolar kamida kollej, texnikum yoki oliyohini bitirgan bo‘lishi kerak, — deydi B.Yo‘ldoshev. — Malaka diplomlarini O‘zbekistonda tekshiruvdan o‘tkazib, tasdiqlatish uchun Germaniyaga yuboramiz. Malaka diplomlari O‘zbekistonga viza hujjatlari sifatida qaytib keladi va biz ishga bormoqchi bo‘lgan yurtdoshlarimizning hujjatlari Germaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasiga taqdim etilishiga ko‘mak beramiz.

Har bir chet ellik ishchidan til bilishi haqidagi sertifikat talab etiladi. Til bilishning bosqichlari bor. A1 darajadan C1 darajagacha. Yuk mashinasi haydovchilari, texniklar, qurilish, gastronomik yo‘nalishlarda B1 daraja talab etilsa, hamshiralilar uchun B2 daraja kerak bo‘ladi.

Til o‘rganish qiyinmi? Shu darajadagi sertifikatni olish qancha vaqt talab etadi, buning uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan, degan haqli savol tug‘iladi.

Hozirgi paytda til o‘rganish uchun alohida dasturlar mavjud. A1-A2 darajaga chiqish uchun 3-4 oy yetadi. B1 daraja olish uchun 6 oy, lekin kimdadir 8 oy kerak bo‘ladi. Bunda yosh bilan bog‘liq hech qanday to‘siq yo‘q. Chunki til o‘rganish insonning individual qobiliyatiga bog‘liq. Doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish uchun vaqt sarflab, til o‘rgansa arziydi.

Nemis tilini o‘rganish jarayonida agentlikka murojaat qilgan yurtdoshlarimiz ro‘yxatga olinadi. Til bilishi haqidagi sertifikatga ega bo‘lgach, ish beruvchi bilan o‘tkaziladigan tanlovlarga jalb qilinadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonga berilgan vakansiyalar soni kundan kun ortib boryapti. Albatta, xorijlik ish beruvchilarning ham o‘z talabi bor. Ta‘kidlanishicha, bu talablarga mos ravishda murojaat qilgan, umuman, agentlikkacha yetib kelgan yurtdoshlarimiz, afsuski, ozchilikni tashkil etadi. Agentlikkacha yetib kelmaganlar ham e‘tibordan chetda qolmaydi. Deylik, talab kam bo‘lgan yo‘nalishlarda tahsil olgan, katta tajribaga ega bo‘lganlarga tegishli vakansiya bo‘yicha bo‘sh ish o‘rinlari topishga harakat qilinadi.



Germaniyadagi hamkor tashkilotlar bilan birga bir qancha loyihalar ishlab chiqilgan. Nemis tilini yaxshi o‘rgangan mutaxassis to‘g‘ridan to‘g‘ri ish beruvchiga yo‘naltiriladi. Germaniyada dastlab yana 2 oydan 6 oygacha malaka oshiradi. Ushbu vaqt davomida u mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan oylik maoshini to‘liq oladi. Kasb sertifikatini qo‘lga kiritgandan keyin asosiy ish turiga o‘tishi bilan oylik maoshi sezilarli darajada ko‘tariladi. Malakasi qanchalik oshsa, oylik maoshi ham ortib boradi. 2020-2021-yillarda faoliyat boshlagan yurtdoshlarimiz hozir bo‘lim yoki jamoa boshlig‘i sifatida ishlayotgani ham bor gap.

Bir yildan ortiq tayyorgarlikdan so‘ng, nihoyat ikkinchi urinishda Germaniyaga yo‘llanma oldik. Quvonarlisi, bizning taqdirimiz uchun o‘z davlatimiz qayg‘uradi. Do‘stim bilan bu mamlakatga kelgach, to‘g‘ri qaror qilganimizni angladik.

DIYDORNING
NARXI BO‘LMAYDI

Bugungi kunda qanchadan-qancha yoshlar xorijda ta‘lim olish barobarida mehnat faoliyati bilan ham mashg‘ul. Kim qayerda qanday ish bilan band bo‘lmasin, Vatani sog‘inchi bilan yashaydi. Albatta, chet mamlakatda, begona yurtda turli qiyinchilik va mashhaqqatlarga chidab, halol mehnat qilib, non topish oson emas. Ammo ularning huquq va manfaatlari doimiy davlatimiz e‘tiborida, ular ko‘mak va g‘amxo‘rlikni his qilib turadi.



Alisher AHMEDOV,
Simson Privat Akademi talabasi:

— Insonning kelajagiga muhit, xususan, ota-onaning ta‘siri katta. Esimni tanibman, ota-onam qo‘shni davlatlarda ishlash, yillab ularning diydorini qo‘msab, bolaligimiz o‘tdi. Kollejda qishloq xo‘jaligi avto-transportlariga texnik xizmat ko‘rsatish mexaniki mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim oldim. Chunki bu yo‘nalishni bolaligidan yaxshi ko‘raman, kollejda kirguncha usta qo‘shnimizga shogird tushib, avtomobil tutatishni o‘rganganman.

Kollejni bitirgach, ota-onamning yoniga ketdim. Maqsadim ularga yordam berish edi. Qurilishda to‘rt yil ishladim. Tushundimki, ota-onamga oson bo‘lmagan ekan.

Ota-onam u yerda bir o‘z ishlasam, meni uylantirib qo‘yishni aytishdi. Men esa hali uylanishga tayyor emasdim. Oila boqish uchun biror kasb yoki biznesim yo‘q, oila qurishdan hayiqqanman. Bir do‘stim Germaniyada o‘qish imkonimiz borligi haqida aytib qoldi. Tashqi mehnat migratsiyasi telegram kanali shu haqda ma‘lumot topdik. Nemis tilini o‘rganib, Germaniyaga ketishga qaror qildik. Chunki bu yo‘nalishni bolaligidan yaxshi ko‘raman, kollejda kirguncha usta qo‘shnimizga shogird tushib, avtomobil tutatishni o‘rganganman.

Bir yildan ortiq tayyorgarlikdan so‘ng, nihoyat ikkinchi urinishda Germaniyaga yo‘llanma oldik.

O‘ZBEKISTONLIK HAMSHIRA
NUFUZLI XALQARO KLINIKADA

Oilasi, uch farzandi va sevgan kasbi bor o‘zbek ayolining boshqa davlatga yolg‘iz o‘zi ketishi uncha xushlanmaydi. Dilnura Berdiyeva Germaniyaga ishga otlanganida mentalitetga xos bo‘lgan ana shu qarama-qarshilikka duch keldi. Turmush o‘rtog‘i bu haqda eshitishni ham istamas, ota-onasi, qarindosh-urug‘i ham xayrixoh emasdi. Ammo Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Shveysariyaning “GLOBOGATE Concept AG.” tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihada Germaniya davlatida ishlash tartibi, agentlik tomonidan ko‘rsatiladigan ko‘mak, nufuzli xalqaro klinikada faoliyat yuritish imkoniyati xususida batafsil ma‘lumot berilgach, ko‘ngillardagi barcha xiralik va ikkilanish barham topdi.

Dilnura BERDIYEVA,
hamshira:

— Angren tibbiyot kollejni imtiyozli tamomlagach, Toshkent tibbiyot akademiyasining Oliy ma‘lumotli hamshira fakultetiga grant asosida o‘qishga qabul qilindim. Bakalavrni tugatgach, sog‘liqni saqlashni boshqarish yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bosqichida tahsil oldim. Bu orada turmushga chiqib, farzandli bo‘ldim.

O‘qishni bitirgach, avval Angren shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasida yetakchi mutaxassis, keyinroq akusherlik kompleksida bosh hamshira sifatida ishladim. 9 yillik faoliyat davomida kasbimda mehmrim, qiziqishim ortdi, tajribaga ega bo‘ldim. Jarayonda tibbiyot kolleji talabalariga ham amaliyotdan bilim va ko‘nikmalarimni o‘rgatib bordim. 2021-yil aprel oyida Farg‘ona shahrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish hayotimda katta burilish yasadi. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Shveysariya Konfederatsiyasining “GLOBOGATE Concept AG.” tashkiloti o‘rtasida tuzilgan shartnomaga ko‘ra, Germaniyada ishlash uchun ro‘yxatdan o‘tdim. Olti oydan so‘ng menga qo‘ng‘iroq bo‘ldi va loyiha O‘zbekistonda o‘z ishini boshlaganini, subhatga kelishim mumkinligini aytishdi. Subhatdan muvaffaqiyatli o‘tdim. Bilsam, ikkita yo‘nalish bo‘yicha hamshiralarni tanlanayotgan ekan, Gyttingen shahrida psixiatriya yo‘nalishi bo‘yicha mashhur ASKLEPIOS klinikasiga va Axen shahrida somatika bo‘yicha ixtisoslashtirilgan markazga ishga taklif qilishayotgan edi. Albatta, men har ikki yo‘nalishda ham o‘zimni sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim. Qarangki, ikkovidan ham muvaffaqiyatli o‘tdim. Ular menga bittasini tanlashim kerakligini aytishdi va men bugun Axen shahridam.

Bu loyiha aynan men uchun tayyorlangandek. Chunki orzum rivojlangan davlatlarda, ayniqsa, Germaniyada bilimim, malakamni oshirish edi. Shu bilan birga, kasbdoshlarimning boshqa davlatlarda qanday faoliyat yuritayotganiga juda qiziqardim. Qarabizki, taqdir taqozosi bilan orzuimning o‘zi eshik taqillatib turibdi. Bu meni juda ham quvvatirdi va xabarni oilamga aytganimda, tabiiyki, avvaliga rozi bo‘lishmadi.

Loyiha Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan amalga oshirilayotgani, davlat e‘tiborida bo‘lishimiz,

oilani birlashtirish, ya‘ni oila a‘zolari bilan birga ketish kabi imkoniyatlar berilishi, bu loyiha orqali chet el tajribasini vatanimizga tatbiq qilishimiz mumkinligini eshitgach, ruxsat tegdi.

Shu bilan 2022-yil yanvar oyidan boshlab nemis tili kursida tahsil ola boshladim. 10 oylik dastur davomida barcha xarajadlarimiz O‘zbekiston va Germaniya tomonidan to‘liq qoplab berildi. Nemis tilini puxta o‘rganishimiz uchun zarur bo‘ladigan barcha o‘quv materiallari tarqatildi, zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlandik. Biz katta xohish bilan nemis tilini o‘rganishni boshladik. Bir yil davomida o‘qib, B2 sertifikatini qo‘lga kiritganim ajoyib natija edi.

2023-yil sentabr oyida bu yerga keldik. Oktabr oyida integratsiya dasturida o‘qishni boshladik. O‘qish davomida bizga Germaniya tibbiyoti va biz ishlayotgan klinik haqida chuquroq, batafsil ma‘lumotlar berildi, har birimizni o‘z sohamiz, yo‘nalishimiz bo‘yicha bo‘limlarga ajratishdi. Men ginekologiya bo‘limiga tushdim. Ikki oy mobaynida ginekologiya bo‘limida malaka oshirdim. Boshqa davlatlardan kelgan hamkasblarim bilan tanishdim. Bu yerdagi sifatlari, ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan tibbiyot xodimlaridan ish o‘rgandim. O‘rganishda hali ham davom etmoqdaman. Hozirgi kunda biz kasbiy tasdiqlanish, ya‘ni Germaniya davlatida hamshira sifatida tan olinish jarayonidamiz. Bu ikki oy davom etadi. Men 240 soat amaliyotda ishlash berishim kerak. Bu jarayon tugagach, yana bir marta subhatdan o‘taman va qayta shartnoma tuziladi, shundan keyin biz Germaniya yoki Yevropaning boshqa davlatlaridan tan olinadigan hamshira sifatida o‘z faoliyatimizni davom ettiramiz.

Kasbiy tasdiqlanish — ya‘ni tan olinish bosqichi o‘tgach, oilamiz bilan bir joyda yashashimiz mumkin bo‘ladi. Ularga Germaniyaga kelishi uchun taklifnomaga yuboramiz. Shu orqali oilani birlashtirish boshlanadi.

Bu jarayonda loyiha vakillari o‘z yordamini ayamasligini bildirdi. Qabul qilingan yangi qonunlar bilan amaldagi tartib yanada soddalashtirildi. Oila a‘zolarim ham bu yerga kelgandan keyin hammamiz birga yashaymiz. Farzandlarim Germaniya maktablarida o‘qib, o‘z ustida ishlash, O‘zbekistonimizga kerakli mutaxassis bo‘lib yetishishiga ishonaman.

Germaniyada tibbiyot xodimlari uchun juda keng imkoniyatlar yaratilgan. Har bir tibbiyot xodimi bemorga yuqori sifatlari yordam ko‘rsatishi uchun hamma sharoit bor. Nemis xalqi juda tartibli. Hamma ishini o‘z vaqtida rejalashtiradi va unga amal qiladi. O‘ziga yuklatilgan vazifani astoydil bajaradi. Shu tomonlama menga juda yoqdi. Ko‘p narsa o‘rgandim. Bular o‘z ustimda yanada ko‘proq ishlashimga yordam berdi.

Maosh haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, kelgan kuni-mizdanog‘ o‘qish va amaliyot jarayonida ham oylik to‘lab borildi. Biz bu yerda umuman qiynalganimiz yo‘q. Deyarli har 2-3 oyda O‘zbekistonga kelib, oilamiz bilan ko‘rishish imkonimiz bor. Garchi, internet orqali har kuni ko‘rishib, gaplashib tursak-da, Vatani, oila sog‘inchi ko‘ngilni o‘rtaydi. Baribir, yuzma-yuz diydorga nima yetsin.

“HAR KUNI ERTALAB
VATANIMNI, OILA
A‘ZOLARIMNI SOG‘INGANIMNI
HIS QILIB UYG‘ONAMAN”

Yusufjon O‘ktamov 2000-yilda Farg‘ona tumanida dehqon oilasida tug‘ilgan. Yoshligidan uy ishlarida ota-onasiga qanot bo‘lgan qahramonimizning ko‘p vaqti dala ishlari bilan o‘tardi. Ammo bu uning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini zararcha so‘ndirgani yo‘q. Tumandagi 47-umumta‘lim maktabini a‘lo baholarga bitirdi. Farg‘ona yuridik texnikumida o‘qish davomida chet tillarni puxta o‘rganishga harakat qildi.

Farg‘ona davlat universitetining psixologiya fakultetida sirtqi bo‘limda o‘qish barobarida “Bahodir Log‘on tekstil” qo‘shma korxonasida bosh mexanik yordamchisi sifatida ishlay boshladi. Albatta, ham o‘qib, ham ishlash, til o‘rganish oson emasdi. Kechki payt ishlash, kunduzi o‘qishga borar yoki kunduzi ishlash kechki soatlarda til o‘rganish kursiga shoshgan Yusufjonning shijoati bir zum bo‘lsa-da, so‘nmadi. Maqsad sari dadil odimlar, qiyinchiliklar uni tobora toblab borardi. Bir yillik mashg‘ulotlardan so‘ng B1 til bilish sertifikatini qo‘lga kiritgan Yusufjon Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga murojaat qildi. Ayni paytda agentlik ko‘magida Germaniyada mexanik vazifasida mehnat qilmoqda.

Yusufjon O‘KTAMOV,
MAN Truck & Bus kompaniyasi
mexanigi:

— Germaniyada qo‘ldan kelgancha muhitga moslashib, zarur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lib boryapman. Bu mamlakat tajribasining ilg‘or jihatlari ko‘p. Sababi bu yerda ham o‘qish, ham amaliyot bir vaqtda davom etadi. Men katta yuk mashinalari, ya‘ni furalar, avtobuslarga servis xizmati ko‘rsatish yo‘nalishida ishlayman.

Bir hafta ish bilan mashg‘ul bo‘lsak, bir hafta to‘liq o‘qishda bo‘lamiz. O‘qish bilan amaliyot bir



vaqtda olib borilgani uchun amaliyotda o‘rganilganimizni o‘qish jarayonida yanada teranroq tushunamiz. Yoki o‘qishda o‘rganilganlarimizni amaliyotda qo‘llashimiz mumkin.

Har kuni ertalab Vatanimni, oila a‘zolarimni sog‘inganimni his qilib uyg‘onaman. Dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan birida yashab, o‘qib yurganim bilan qishlog‘imning chang ko‘chalarini hech qayerga almashmayman. Bu yerda hamma narsa yetarli, hamma sharoit bor, ammo baribir oila tafti, Vatani sog‘inchi, do‘stlar davrasi kamlik qiladi.

Ishimni yaxshi ko‘raman. Kun davomida yangi bilim o‘zlashtirishga harakat qilaman. O‘rganilganlarimni amaliyotga mustaqil qo‘llaganimdan keyin o‘zimda yo‘q xursand bo‘laman. Bu yerdagi mexanik katta ustozlar “Juda tez o‘rganyapsan, ikki-uch yilda o‘rganish mumkin bo‘lgan narsani sen 5-6 oyda o‘zlashtirding”, deganida juda xursand bo‘lganman. Germaniyaga kelmoqchi bo‘lgan yoshlar, akalarkalarga aytmoqchi bo‘lganim — tilni yaxshilab o‘rganish juda ham zarur. Bu yerga til bilmasdan kelish noto‘g‘ri. O‘zlari qiziqqan sohada oz bo‘lsa ham tajribaga ega bo‘lishi shart. Eng muhimi ishtiyiq, qiziqish bo‘lsa, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lishi shubhasiz.

SO‘NGSO‘Z O‘RNIDA

Vaqtinchalik xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimiz ham O‘zbekiston fuqarosi. Ular taqdir hukmiga tashlab qo‘yilmagan. Huquq va manfaatlari himoyada, yashash, ishlash sharoiti hamisha nazoratda.

Ular qayerda bo‘lmasin, Vatanning bir bo‘lagi. Vatanning qadri, sha‘ni ular bilan birga. Borgan joyining tosh-u tarozusi, yaxshi va yomoniga ko‘nikish, xavfsiz, tartibli faoliyat yuritishi, daromad topishi uchun keng imkoniyatlar ishga solinmoqda. Malaka oshirishi, yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun sharoit yaratilmoqda. Bu sa‘y-harakatlar inson qadriini amalda ulug‘lashdek ezgu ishlardan bir nishona.

Bugunning gapi



Bugun yoshlar ongida, asosan, moddiyat ustuvor. Bunday holatda vatanparvarlik, tejamkorlik, ilmga intiluvchanlik, sogʻligʻi toʻgʻrisida qaygʻurish singari goʻzal fazilatlarining boshqa indikatorlarini sharhlashga ehtiyoj ham, zarurat ham yoʻq. Shunday ekan, nega endi maʼnaviy qadriyatlarimizni moddiy ragʻbat orqali yoshlarimiz ong-u shuuriga singdirishimiz mumkin emas?!

IQTISODIYOT VA MAʼNAVIYAT taraqqiyotning ikki qanoti



Obiddin MAHMUDOV,
Iqtisodiyot va moliya vazirining maslahatchisi

Maʼnaviy meros shunchaki shior emas

Ajdodlarimiz iqtisodiyot va maʼnaviyatning oʻzaro chambarchas bogʻliq ekanini chuqur anglagan. Xususan, “Avesto”, “Qobusnoma”, “Qutadgʻu bilig” kabi nodir asarlarda maʼnaviy barkamol inson va iqtisodiy-axloqiy tarbiya xususida fikrlar keltirilgan. Haromdan hazar qilish, nopoklikdan tiyilishga chaqirilgan. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida Oʻytoʻldining Oʻgʻdulumishga nasihatini olaylik. Unda toʻgʻrilik, tejamkorlikka katta ahamiyat berilganini koʻramiz:

“...Molim senga qoldi, men uchun malol,
Rohat-farogʻatda kun koʻrgin halol.
Tuta bilsang, mol-u mulkim tutgaysan,
Faqirlik nelingin unutgaysan.
Feʼl-atvoring halol, faqat toʻgʻri qil,
Toʻgʻrilik bilan baxt-saodat ahil”.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham tejamkorlik, qanoat haqida purmaʼno gaplar uchraydi. “Bor molingga qanoatda boʻlgʻil, qanoat tuganmas ganjdur. Qashshoqlikning sababi isrofdur...”.

Shuningdek, bozor munosabatlarida insof va diyonat, xaridorga muomalada samimiyat va halimlik kabi xususiyatlar boʻlishi zarurligi aytib oʻtilgan.

Maʼnaviyati yuksak inson hech qachon bironing haqqiga, davlat, jamoa mulkiga xiyonat qilmasligi, eliga, yurtiga, oilasiga sadoqatli boʻlishi bunday asarlarda koʻp va xoʻb bitilgan.

Maʼnaviyat targʻibotchisining asosiy shiori

Aslida, maʼnaviyat bizga tiriklikning mazmuni va maqsadini tushuntiradigan, xatti-harakatimizni goʻzal axloq bilan boyitadigan nafis tuygʻu, botiniy kuchdir. Maʼnan yetuk, hushyor insongina millatning buguni va ertasi haqida fikr yuritadi, qaygʻuradi, tafakkur qiladi. Kelajak avlodning yanada baxtli, farovon hayot kechirishiga, yaxshi bilim olishiga hissa qoʻshishga intiladi. Negaki, har bir alohida shaxsning va butun millatning maʼnaviy kamoloti yurt taqdirini belgilovchi mezonidir.

Bu borada davlatimiz rahbari belgilab bergan toʻqqiz asosiy yoʻnalishdagi vazifalar faqat madaniyat, maʼnaviyat, maʼrifat sohasida faoliyat yuritayotgan fuqarolar emas, balki jamiyatimizning har bir aʼzosisga tegishli. Ochigʻi, yon-atrofda

Jamiyatning iqtisodiy rivoji bilan bogʻliq munosabatlarda maʼnaviyat masalalari, xususan, insonparvarlik, ijtimoiy talablar va meʼyorlar hisobga olinadi. Bu esa maʼnaviyatning ishlab chiqarish, iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bogʻliq ekanini koʻrsatadi. Rostda, iqtisodiy va maʼnaviy jarayonlarni oʻzaro uygʻun rivojlantirish jamiyatda siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning yuksalishiga sabab boʻladi. Zotan, iqtisodiyot va maʼnaviyat bir-birini qoʻllab-quvvatlab, oʻzaro taʼsirlanib, rivojlanib boradi.

boʻlayotgan voqea-hodisalarga xuddi jadid bobolarimizdek munosabat bildira oladigan, sergak, yangilikka intiluvchan, chinakam yurtparvarlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu oʻrinda, birinchi navbatda, maʼnaviyat va maʼrifat markazlari, maʼnaviyat targʻibotchilari va ziyolilar faol boʻlishi, boshqalarni oʻz ortidan ergashtirishi lozim.

Shu bilan birga, virtual olamda madaniyatsizlik, axloqsizlik kabi illatlar muntazam targʻib qilinayotgan murakkab bir sharoitda jonajon yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun, avvalo, xalqimizning maʼnaviy birdamligi, maʼnaviy hamjihatligi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda dunyoning ayrim burchaklaridagi xunrezlik, nizo-nifoqlarga nisbatan joʻyali fikr bildirish, oʻz munosabatini aks ettirish maʼnaviy sergaklikni, yanayam toʻliqroq ifodalasak, ijtimoiy-maʼnaviy birdamlik, bir yoqadan bosh chiqarishdek sharqona donishmandlikni talab etadi.

Hozir har bir fuqaro shaxsiy masʼuliyat, goʻzal odob-axloqi bilan namuna boʻlishi zarur. Demak, har birimiz oʻz oʻrnimiz, maqomimiz, vakolatimiz, egallab turgan lavozimimiz darajasida qoʻldan kelguncha maʼnaviy barkamollik borasida targʻibotchi vazifasida jon kuydirishimiz kerak. Maʼnaviyat masalasida har bir xatti-harakatimiz, soʻzimiz, koʻzlagan maqsadimiz “ezgu niyat, ezgu soʻz, ezgu amal” tamoyiliga hamohang boʻlishi lozim.

Millat taqdirini oʻz taqdiri, deb biladigan vatanparvar, yosh avlodni yuksak maʼnaviyatli qilib tarbiyalashda jonkuyar, moddiy, maʼnaviy-maʼrifiy qadriyatlarini eʼzozlaydigan, maʼrifatli jamiyatni barpo etish kabi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda hamda yurt ravnaqi uchun maʼrifatparvarlik harakatlarida doimo faol fidoyi inson maʼnaviyat targʻibotchisi sanaladi.

Maʼnaviyat targʻibotchilari ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqur tahlil qilgan holda

ularning mazmun-mohiyatini xalq orasida yoyishda, birinchi navbatda, oʻzlari bu soʻz zaminidagi ezgu fikrlarni qalbida oʻtkazishi, anglab yetishi zarur. Ular mavjud yutuqlarni maqtash, ularga mahliyo boʻlish emas, balki mamlakat taraqqiyotiga toʻsiq boʻlayotgan yot gʻoyalarga qarshi kurashish, maʼnaviy tahdidlarga doimo hushyor turadigan bilimli, kuch-gʻayratli, maʼnaviy indeksi yuqori boʻlgan insonlardir.

Maʼnaviy ehtiyoj — maʼnaviy indeks

Muayyan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yoʻli qay darajada taraqqiy

Har qanday yuksak iqtisodiy va maʼrifatli jamiyat asosida, avvalo, inson kamoloti, fikriy yuksalishi turadi. Uning oʻq ildizida esa insonning axloqi va ruhiy tarbiyasi shakllanadi.

etayotganini indeks va indikatorlar, yaʼni makroiqtisodiy koʻrsatkichlar yordamida aniqlab, uni ijobiy tomonga yoʻnaltirish mumkin. Bunda iqtisodiy indikatorlardan tegishli formula asosida foydalanilsa, kifoye. Shu paytgacha maʼnaviyat va tilni “oʻlchab boʻlmaydigan narsani boshqarib boʻlmaydi” degan tushuncha

va taʼriflar qatoriga kiritib, bu sohaga eʼtiborsiz boʻlib keldik. Natijada bugun zamonaviy IT texnologiyalar yordamida Gʻarbdan oqib kelayotgan “ommaviy madaniyat”ning raqamlashtirilishi oqibatida yoshlardagi maʼnaviy boʻshliq qariyb toʻliq moddiyat bilan toʻldirildi.

Buni aniqroq tasavvur etish uchun Instagram platformasiga murojaat qilamiz. Maʼlumki, Instagramda “Giveaway” degan funksiya mavjud. Unda, asosan, soʻnggi rusumdagi smartfondan tortib, uy, avtomashina va boshqa turli moddiy buyumlar, sovgʻalarga oson yoʻl bilan erishish targʻib qilinadi. Bu funksiya, oʻz navbatida, yoshlar ongiga mehnat qilmasdan qisqa muddatda katta yutuqlarga erishish mumkin, degan tushunchani asta-sekin singdiradi. Tabiiyki, uning kuzatuvchilari soni nihoyatda koʻp. Bu esa azaliy qadriyatlarimizdan biri sanalgan mehnatsevarlikning susayishiga xizmat qilib, yoshlarda boqimandalik kayfiyat paydo boʻlishiga olib keladi.

Bugun yoshlar ongida, asosan, moddiyat ustuvor. Bunday holatda vatanparvarlik, tejamkorlik, ilmga intiluvchanlik, sogʻligʻi toʻgʻrisida qaygʻurish singari goʻzal



fazilatlarining boshqa indikatorlarini sharhlashga ehtiyoj ham, zarurat ham yoʻq. Shunday ekan, nega endi maʼnaviy qadriyatlarimizni moddiy ragʻbat orqali yoshlarimiz ong-u shuuriga singdirishimiz mumkin emas?!

Bugungi kunda ichki va tashqi maʼnaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish, aholi, ayniqsa, yoshlar ong va qalbida yangi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda maʼnaviy sohadaqi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish dolzarb boʻlib bormoqda. Zero, maʼrifatli jamiyatni barpo etish, kelajak paydevorini qurish har bir fuqarodan qatʼiyatli va omilkor boʻlish, yangicha fikr yuritishni, yangicha ishlashni talab qilishi tabiiy.

Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yil-larga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi “maʼnaviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish” nomli yoʻnalishi, nazarimiza, aynan ushbu masalaning yechimini topish imkonini beradi.

Strategiyada koʻzda tutilgan maqsadlarga muvofiq taklif ishlab chiqildi. Jumladan, bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida insonning maʼnaviy salohiyatini

maʼnaviy ehtiyojidan kelib chiqib, quyidan yuqoriga qarab doimiy baholab boruvchi “Maʼnaviy indeks” yagona aniq mexanizm (platformasi)ni kiritish tavsiya etiladi.

Maʼnaviy indeks inson maʼnaviy kamolotining oʻsish koʻrsatkichi boʻlib, muayyan jamiyat aʼzolarining yagona maqsadga erishish yoʻlidagi musharakligini taʼminlaydigan amaliy harakat dasturidir. U — qadriyat bilan uzviy bogʻlangan goʻzal insoniy fazilatlarini saqlab turuvchi, uni davr talabi bilan oqilona uygʻunlashtiruvchi hamda takomillashtiruvchi istiqbolli mexanizm.

Taklif etilayotgan ushbu loyiha har bir fuqaroning hayoti davomida maʼnaviy salohiyatini baholab boruvchi milliy tizim. U siyosat darajasiga koʻtarilgan yettita indikator, yaʼni goʻzal axloqqa ega boʻlish, qonunga itoatkorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tejamkorlik, oʻz sogʻligʻi toʻgʻrisida qaygʻurish, chuqur bilim va foydali kasb-hunar oʻrganishga asoslanadi.

Loyiha har bir fuqaro butun hayoti davomida oʻqishi kerak boʻlgan, umum-madaniy saviyani bosqichma-bosqich baholab borishga qaratilgan 84 asarni

nodavlat tashkilotlar va boshqalar uning subyekti boʻlishi mumkin.

Yakunda maʼnaviy indeksni tatbiq etish yagona mafkura ostida inson, jamiyat va davlat tamoyillari asosida fuqarolarning ijtimoiylashuviga, til, fikr va ishda yakdil uygʻunlik paydo boʻlishiga xizmat qiladi.

Targʻibotga yangicha yondashuv

Bugun jaholatga qarshi maʼrifat qurolini ishga solish maʼnaviyat zimmasiga katta masʼuliyat yuklaydi. Oila va maktabda taʼlim-tarbiyaning taʼsirchan usullarini izlab topish va oʻziga xos tarzda qoʻllash, maʼnaviy tarbiyaning uzluksizligi, targʻibotning samarali boʻlishini taʼminlashga, avvalo, ota-ona, ustoz-murabbiylar, qolaversa, butun jamiyat masʼul.

Maʼrifatli jamiyatning drayveri xalqqa maʼnaviyatni targʻib qilish, yoshlarga sifatli taʼlim-tarbiya berish kabi savobli va xayrli ishlarga daʼvat etadigan moʼtabar joy — maktablar va ularda ishlaydigan aziz va tabarruk murabbiylardir.

Bu borada takliflarimiz quyidagilardan iborat.

Birinchidan, mamlakatimiz aholisining salmoqli qismi maktablarda taʼlim olishini hisobga olib, avvalo, ularga taʼlim-tarbiya berayotgan muallimlarning maʼnaviy salohiyatini oshirish maqsadida “ZOOM” dasturi orqali jamoatchilik tanigan, maʼnaviyat va maʼrifat sohasi fidoyilarining mahorat darslarini muntazam tashkil qilish zarur. Sababi, ustoz-murabbiy millionlab yoshlar ongini ijtimoiy tarmoqlar qamogʻiga ilinib qolishdan hamda ijtimoiy faol, siyosiy sergak, gʻoyaviy-mafkuraviy jihatdan mustahkam boʻlishga, maʼnaviy-axloqiy va ruhiy qudratini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, har bir sohadan yetishib chiqqan fan arboblari, mehnat qahramonlari, davlat mukofotiga sazovor boʻlgan hamyurtlarimizning mehnat faoliyati, bosib oʻtgan yoʻli toʻgʻrisida taʼlim muassasalari hamda ijtimoiy tarmoqlar uchun taʼsirchan, vatanparvarlik ruhidaqi maqola, videolavha va boshqa materiallar tayyorlab, televidniye, OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam berib borish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari qamrovini hisobga olib, ular orqali berilayotgan barcha dasturlarni tayyorlashda maʼnaviyatimiz va madaniyatimiz yuksalishiga xizmat qiladigan jihatdarga eʼtibor qaratish, buning uchun soha vakillari hamda unda taʼlim olayotgan boʻlajak mutaxassislar bilan maʼrifat targʻibotchilarining mahorat darslarini tashkil qilish lozim.

Har qanday yuksak iqtisodiy va maʼrifatli jamiyat asosida, avvalo, inson kamoloti, fikriy yuksalishi turadi. Uning oʻq ildizida esa insonning axloqi va ruhiy tarbiyasi shakllanadi. Inson oliy mavjudot deb qadrlanadi, ammo odamiylikning asl mohiyati boʻlgan maʼnaviy qiyofani shakllantirish muammosi hali umuminsoniy miqyosda tadqiq etilganicha yoʻq, hamon oʻrganilmoqda. Milliy maʼnaviyat haqida koʻp gapiraymiz, ammo oʻtmish bilan faxrlanishdan nariga oʻtmaymiz. Aslida, barcha illatning ildizi birgina shaxs maʼnaviyatida ekanini chuqur anglab olmoq zarur. Zero, axloqsiz mukammallikka erishib boʻlmaydi. Shundagina kuchli maʼnaviyat milliy axloqimizning yemirilishi, milliy qadriyatlarimizning qadrsizlanishi, ichki va tashqi tahdidlar xavfi taʼsiriga qarshi kurashishga safarbar etadigan qudratli kuchga aylanadi. Kuchli iqtisodiyot va kuchli maʼnaviyat mutanosiblikda ravnaq topadi.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolopak” MCHJ masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 988.
44909 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Oʻzbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar koʻchasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manziliimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy